

O'zbekiston

Respublikasi

Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vazirligi

Andijon Davlat Universiteti

Tarix fakulteti

4-kurs " I " gurux tolibi

Xudayberdiyev Xurshidbekning

Bitiruv Malakaviy Ishi

Mavzu: Baliqchi tumanidan qatag'on qilingan Ishod -
xo'jayev G'ozixon Eshon, Mirazimov Mulla Akbar ,
Nuriddinov Eshon Najmiddin, Avulov Mulla Qurbon
uning hayot yo'li va taqdiri

Ilmiy raxbar: Katta o'qituvchi E. Erkayev.

ANDIJON - 2011

Mavzu: Baliqchi tumanidan qatag'on qilingan
Ishodxo'jayev G'ozixon Eshon, Mirazimov Mulla Akbar ,
Nuriddinov Eshon Najmiddin, Avulov Mulla
Qurbonlarning hayot yo'li va taqdiri

REJA

KIRISH (Mavzuning tarixshunosligi, dolzarbligi,
manbashunosligi)

1. Baliqchi tumanida kollektivlashtirish , quloqqa
tortish va uning oqibatlari .
2. "Katta terror" qurbonlari uning hayot yo'li va taqdiri.
3. Qatag'on qurbonlari ning hozirgi avlodlari.

XULOSA.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI.

ILOVALAR.

KIRISH

Mustaqillik yillarida respublikamizda tub isloxotlarni o'tkazish jarayonida milliy tiklanish, ma'naviy yangilanish va milliy o'zlikni anglash va erkin tafakkurga ega bo'lgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash kabi ulug'vor ishlarda tarix fanining ro'li va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Prizentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" nomli asarida el-yurtimiz ko'p asrlik tarixi davomida ko'plab ma'shum xatarlarni bir necha bor ko'rgan, ularning jabrini tortgan. SHular xaqida to'xtalib mana bunday deb yozgan edi. "SHunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim"¹.

O'zbekistonning sovet rejimi davridagi tarixning misilsiz alamning va qayg'ulik saxifalardan biri 20-30-yillardagi qishloq xo'jaligi kallektivlashtirish va shu asosda quloqlashtirish hamda u bilan birga quloqqa tortilgan dehqonlarni surgin qilish, qatog'on qilish masalasidir. Bu mudxish jarayonda xalqimiz o'z boshidan misilsiz azob-uqubatlarni kechirishga maxkum etilgandi. Ayniqsa, qishloq axolisining katta qismining uy - joyidan, xovlisidan, ot-ulovidan, milliy moqomidan, yaqinlaridan, mahalla - ko'yidan, makonidan, qavmu-qarindoshidan, butun borlig'dan mahrum qilinib qamoqqa olindi, uzoq begona yurtlarga surgun qilindi, qullarcha hayot kechirdi, kansentrasyon lagerlarga

1. Karimov I.A. – "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" T.: "O'zbekiston", 2008, 4-bet.

tashlandi. Ular SHimoliy Kavkaz , Sibir, Uzoq SHarq , Ural , Qozog'iston , O'rta Osiyodagi GULAG va mehnat tuzatuv lagerlarda o'lib ketdi ².

“ SHu davrda , - deb ko'rsatdi yurtboshimiz. – Qancha – qancha odamlarning o'z oilasidan judo bo'lgani ayollar bevalikka , go'daklar yetimlikka mahkum etilgani , minglab mirishkor dehqonlarning quloq sifatida olis o'lkalarga surgun qilinganini inobatga olsak , xalqimiz boshiga tushgan fojeaning dahshati yanada yaqqol namayon bo'ladi “².

Istiqlolning ozodlik shamoli , ma'naviy yangilanish jarayoni Vatan tarixshunoslik sohasiga ham kuchli ta'sir etdi . Prezidentimiz Islom Karimovning sa'y-xarakatlari va rahnamoligida mustqilligimizning ilk yillaridan boshlaboq Vatan tarixshunosligimizni tubdan yangilash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda . Prezidentimizning qator asarlarida , ayniqsa uning “ Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q “ asarida ilgari surilgan metodologik ahamiyatga molik g'oyalar va hulosalar yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qilmoqda .

. Tarixchi olimlarning bundan buyongi ijodiy ishlarning , tadqiqotlarning yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Vatan tarixshunosligimizning shakllanish muamollarini, uning bugungi va istiqboliga doir eng muhim masalalar , darhaqiqat, yurtboshimiz , hukumatimizning diqqat markazidadir va bu muammolarning hal etilish , tarix fanimizning bundan keyingi ravnaqi to'g'risida g'amho'rlik qilish chindan ham davlat siyosati darajasiga ko'tarildi . “ O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr qilish to'g'risida “ gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 – yil 16 – dekabridagi qarori buning yaqqol dalili bo'la oladi.

Istiqlolimiz tufayli mustaqil O'zbekiston davlati va hukumati shaxsan

1. SHamsutdinov R. T. , Akbarova M. – “ SHimoliy Qozog'iston surgunidagi yurtdoshlar qismati “ T.: “SHarq” , 2009, 5-bet.

2. Karimov I.A. – “ Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch “ T.: “O'zbekiston” , 2008 , 98 – bet.

Prezidentimiz Islom Karimovning say – harakatlari bilan o'zbek tarixshunosligi , Vatan tarixi yangilanish , ravnaq topish , yangicha metadalogiyani takomillashtirishning katta oydin yo'lga chiqib olmoqda . Endilikda ko'hna va yaqin o'tmish tariximiz bo'yicha birin – ketin yangidan – yangi ilmiy tadqiqot ishlari - monografiyalar , nomzodlik , doktorlik dissertasiyalari , darsliklar , qo'llanmalar , maqolalar ¹ paydo bo'lmoqda . Bularning barchasi tarix fanimizning o'z qadrini yangi asoslarda tiklab , rivojlanishining katta yo'lga tushib olganligining ishonchli dalilidir . Mustaqilligimizning ilk pallalaridayoq tarkib topgan tarixchi olimlarimizning yangi avlodi kuch – g'ayrati , ilmiy jasorati tufayli tariximiz saxifalaridagi mavjud “ oq dog'lar “ bartaraf etilmoqda , o'tmishda soxtalashtirilgan , zo'rma – zo'raki sinflashtirilgan , kommunistik mafkura tazyiqiga olingan mavzular yangicha talqin etilib, yangi metadalogiya mavqeyidan turib xolisona tahlil qilinmoqda , yoritilmoqda.

Quloq qilinadiganlar toifalari va miqdoriy normalari sovet organlari tomonidan belgilab berilgan . Birinchi toifaga “ aksilinqilobiy faollar “ – terror va “ sovetlarga qarshi faoliyat “ tashkilotchilari kirgan . Ular siyosiy jinoyatchilar sifatida qamoqqa olinishi , qatag'on qilinishi yoki xatto otilishi kerak bo'lgan . Ularning oilalari mamlakatning uzoq rayonlariga surgun qilingan . Kollektivlashtirishga qarshi faol kurashganlar , yirik quloqlar va sobiq yarim pomeschchiklar , ya'ni ikkinchi tofa vakillari ham o'sha uzoq joylarga surgun qilinganlar . Quloq

1. SHamsutdinov R.T. - “O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari “ T.: “SHarq” , 2001 , O'sha muallif . “Qishloq fojeasi : Jamoalashtirish , Quloqlashtirish , Surgun . (O'rta Osiyo Respublikari misolida) . T.: “SHarq” 2003 , O'sha muallif va Mamajonov A. “SHimoliy Kavkaz surgunidagi yurtdoshlar qismati ” . T.: “SHarq” , 2005. Abdullayev M.G'. “O'zbekistonda sovetlarning quloq qilish siyosati va uning fojeali oqibatlari (1925- 1945 yillar). Fan nomzodlik dissertasiyasi aftorefarati . TOSHKENT. 2002 .

qilinganlarning qolgan qismi uchinchi toifaga mansub bo'lib , ular avval o'zlari yashab turgan o'lka va viloyatlar xududiga , hamma o'zlarining xo'jaliklar , turar joylaridan tashqari joylarga surgun qilinganlar ¹ .

Zo'ravonlik asosida amalga oshirilgan bu siyosat , adolatsizlik , insoniy haq – huquqlarning qo'pol ravishda oyoq – osti qilinishi tariximizga katta fojea sifatida kirdi va xalq xotirasida g'oyat alamli iz qoldirdi . CHindan ham o'tgan asrning 30 – yillarida o'tkazilgan kollektivlashtirish va quloqlarni sinf sifatida tugatish siyosati o'sha davr sovet tarixshunosligining eng yetakchi mavzusi bo'lgan edi. Tadqiqotchilar orasida , afsuski , hozirgi kunlarda ham tarix fani sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan nufuzli olimlar ham borki , ular endilikda o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqib , ilgargi yondoshuvlarning ilmiy yaroqsizligini oshkora tan olib , shu muammolar to'g'risidagi tarixiy haqiqatni tiklashga muayyan ijobiy xissa qo'shmoqdalar. Ular jumlasiga V.P. Danilov , N.A. Ivaniskiy , I.E.Zelenin , D. Volkoganov , R.X. Aminova , A.A. Golovanov kabi yetakchi olimlarni kiritish mumkun. Sovet davrida tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatilgan mazkur tarixchi olimlar o'zlarining ilgargi konsepsiyalariga , fikrlariga butunlay zid chiqib , tarixiy haqiqatni tiklash sohasida tahsinga loyiq ishlarni amalga oshirdilar . Ularning keyingi yangi tarixiy sharoitdagi ilmiy tadqiqotlarida “ quloqlar ” aslida kim bo'lganligi , quloq qilish siyosatining mohiyati va fojeali oqibatlari xolisona tahlil qilingan . Mazkur olimlarning chindan ham ko'rsatgan ilmiy jasorati ijobiy baholanishga munosibdir , chunki ular ma'lum ma'noda bizni qiziqtirgan muhim muammoni ilmiy metadalogiyamiz asosida yangidan xolisona yoritish , o'rganishni boshlab berdilar .

Sovet davri tarixshunosligida mamlakat qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish, “quloqlar” ni sinf sifatida tugatish siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan

1. SHamsutdinov R. T. “O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari” . T.: “SHarq”, 2001. 17-bet.

mavzuni tadqiq etish masalasi salmoqli o'rin tutgan . Aytish mumkinki , mazkur yetakchi sohalardan biri bo'lgan edi . SHu bois o'z – o'zidan ravshanki , sovet tarixshunosligida bu mavzu rasman juda keng adabiyotlar doirasini qamrab olgan . Bitiruv malakaviy ishida sovet hokimyatining 1937 – 1938 – yillarida “Katta terror” davrida olib borgan qatag'on siyosati ilk bor Andijon viloyati Baliqchi tumanining “A'lam “ , “Karmak” va “ Gurzan ” qishloqlarida qatag'onga tortilgan to'rt oilaning misolida , yaxlit davriy chegarada birlamchi manbalar asosida , yozib olingan esdaliklar va xotiralar asosida , maxsus tadqiq etilgan bo'lib , uning asosiy ilmiy yangiliklari quidagilardan iborat :

- Sovet hokimyatining qatag'on siyosatini viloyatlardagi amaliyotini ko'rsatuvchi ma'lumotlar Baliqchi tumanidan qatag'onga tortilgan to'rt oila misolida , ularning avlodlaridan yozib olingan xotiralar asosida aniqlanib , davriy izchillikda hamda aniq yo'nalishlarda umumlashtirildi va tahlil etildi ;
- Sovet hukumatiga qarshi kurashgan va uning qurboni bo'lgan baliqchilik diniy ulamolarning nomi , ularning faoliyati aniqlandi , hamda sovet hokimyatining ularga nisbatan qo'llagan chora – tadbirlari , ularning fojeali taqdiri yoritib berishga harakat qilindi ;
- Sovet hukumati o'zining qatag'on siyosatini asoslash uchun uyushtirgan siyosiy ayblarini , biz ko'rgan Baliqchilik qatag'on qurbonlari misolida tahlil etilib, ularning siyosiy mohiyatini va huquqiy asoslari tahlil etildi va real xolat bilan solishtirgan holda vatandoshlar qismati ko'rsatib berildi .

Xullas bitiruv malakaviy ishi o'z ifodasini topgan ma'naviy – g'oyaviy fikrlar milliy istiqlol mafkurasini talabalar ongida shakllantirishdek muhim vazifani hal qilishda qo'l keladi , o'quv – tarbiyaviy jarayonning barcha bosqichlarida ma'naviy vosita , faktik material , tarix haqiqati sifatida xizmat qiladi.

1. Baliqchi tumanida kollektivlashtirish , quloqqa tortish va uning oqibatlari .

1929 – yil oxirlaridan e'tiboran sovet davlati qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish siyosati amaliyotini keng ko'lamda boshlab yubordi . Kompartiya oliy organlari va sovet hukumati tomonidan e'lon qilingan qaror va ko'rsatmalarini sinf sifatida tugatish shiori o'rta tashlandi .

Mahalliy xokimyat organlari markaz ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish uchun kollektivlashtirishning boshida turib, ko'proq majburlash , zo'ravonlik usullariga e'tiborini kuchaytirdilar .

Boshqa joylarda kuzatilgani kabi Baliqchi tumanida ham kollektivlashtirish jarayonida ming yillar davomida shakllangan dehqonchilik bilan bog'liq qadriyatlar va an'analar qo'pollik bilan toptaldi . Mahalliy rahbarlar raqamlar ortidan quvib , kollektivlashtirish kompaniyasini zo'ravonlik bilan amalga oshira boshladilar . Qishloq aholisining badavlat , o'ziga to'q qatlamlariga qarshi quvg'in uyushtirildi , dehqonlar majburan kolxozlarga kiritila boshlandi . Kolxozga kirishni hoxlamaganlar ham “quloq” qilib yuborildi .

Kollektivlashtirishni bunday sun'iy tarzda kuchaytirish , dehqonlarga kuch ishlatish , majburlash natijasida 1930 – yil fevral oyi o'rtalarida Baliqchi tumanida jami xo'jaliklar 9310 ta bo'lib , ulardan 8752 tasi kolxozlarga kiritilgan , kollektivlashtirish ko'rsatkichi esa 94,0 foizni tashkil qilgan ¹.

Kollektivlashtirish bilan bir paytda “ quloq ” qilish kompaniyasi ham keskin sur'atda amalga oshirildi . Achinarlisi , bu kompaniyani o'tkazishda qonunsizliklar yuz berdi , zo'ravonlik usullari qo'llanildi . “ Quloqlar ” ga qarshi kurash shiori ostida asosan tadbirkor , ishbilarmon xo'jaliklarga qarshi yalpi urush e'lon qilindi . Hatto dehqonlar dindorligi uchun ham ma'muriyatdan

1. Шамсутдинов Р.Т. ”Трагедия среднеазиатского кишлака : коллективизация , раскулачивание , ссылка . 1929 – 1955 г. г. Документы и материалы . Том 1. “шарк” , 2006 стр . 74.

noroziligi bo'lganligi uchun ham “ quloq ” qilindilar .

SHu davrlarda kollektivlashtirish va “ quloq ” qilish to'g'risida juda ko'plab qarorlar ishlab chiqildi .

1927 – 1928 – yillarda ne'tiboran davlat boshqaruv tizimida ma'muriy buyruqbozlik usullari tomon sezirali burilish yuz bera boshladi .

Qishloq xo'jalikni ommaviy kollektivlashtirish harakati 1929 – yil oxirlaridan boshlandi . Bunga Stalinning 1929 – yil 7 – noyabrda “Pravda” gazetasida e'lon qilingan “ Buyuk burulish yili ” maqolasida o'ziga xos bir turtki bo'ldi . Maqola e'lon qilingach , butun mamlakatda bo'lgani singari O'zbekistonda ham kollektivlashtirish sari ommaviy xarakat avj olib ketdi ¹ .

1930 – yilning 5 – yanvarida VKP (b) MK “ Kollektivlashtirish sur'atlari va kolxoz qurilishiga davlat yordami berish tadbirlari to'g'risida ” gi qarori e'lon qilindi ² .

1930 – yil mart oyida , butun respublikada kollektivlashtirishga qarshi dehqonlarning norozilik harakatlari avj oldi . Majburan tashkil etilgan kolxozlar tarqalib keta boshladi . Baliqchi tumanida ham bunday hol kuzatildi .

Lekin bu holatlarga qaramay kollektivlashtirish harakati to'xtab qolmadi . 1931 – yil bahoridan kollektivlashtirish va “ quloq ” qilinishing yangi to'lqini boshlandi .

“ Qishloq fojeasi : kollektivlashtirish , quloqlashtirish , surgun ” kitobida esa kollektivlashtirish va surgun qilish , “ quloq ” qa tortishning ilk to'lqinlarini

1. SHamsutdinov R.T., Karimov SH. “ Vatan tarixi “ Ikkinchi kitob , Andijon, “Meros”, 1998, 348 – bet.

2. Шамсутдинов Р.Т. ”Трагедия среднеазиатского кишлака : коллективизация , раскулачивание , ссылка . 1929 – 1955 г. г. Документы и материалы . Том 1. “шарк” , 2006 стр . 53-56.

avvalroq ya'ni yer – suv islohoti davrida boshlanganini shu bilan bir qatorda 1928 –yil Baliqchi tumani bo'yicha , xo'jaliklar b'yicha qirqilgan yerlar to'g'risidagi jadval orqali to'liq ma'lumot olishimiz mumkin :

O'zSSR MIK ning 1928 –yil 22 – dekabrdaqi qarori asosida Baliqchi tumani xo'jaliklari bo'yicha qirqilgan yerlar to'g'risida

MA'LUMOT.

№	Yeri qirqilgan xo'jalik egasining ismi va sharifi	Qancha yer qirqib olingan
	Guliston q/s	
1	Xidirali Qurbonov	34
2	Toshmirza Madazimov	16
	Baliqchi q/s	
3	Abduqdirov Temirboyev	12
4	Hamdam Iskandarov	9
	Go'ravon q/s	
5	Rahmattilla Lutfullayev	8
6	SHohnazar Qosimov	30/2
7	Nishnboy Yunusov	11
8	Islomqul Karimqulov	10
	SHamsiqul q/s	
9	Mamatqul Xoliqov	4
10	Mirzaabdulla Yo'ldoshev	24/2
	SHeralichek q/s	
11	Vositxo'jayev Xirmonxo'jayev	2/2
12	Sayiddin Xirmonxo'jayev	2
	Olimbek q/s	

13	Rajabaliboy Nazarov	10
14	Rahmatboy Xojimatmusayev	16
15	Jabarqulixoji Boqiyev	14
16	Nurmat Yunisxo'jayev	16
17	Qodirali Umarxo'jayev	15
18	Rahmonqul Boqiyev	8
19	Muhammadyoqub Yo'ldoshxo'jayev	3
	Eski Xaqqulobod q/s	
20	Mulla Sobir Sodiqov	21
21	Yunusboy Mamayusupov	59
22	Abduraxim Holiqov	30/2
	Siza q/s	
23	Jabarali Rizaqulov	14/2
	Nasriddinbek q/s	
24	O'rinboy Usmonov	8
25	Toshtemir Tojiboyev	5
26	Toshtemir Ummatov	4
27	Ismonqul Egamberdiyev	4
	A'lam q/s	
28	Abdurahim Abdurahmonov	12
	CHinobod q/s	
30	Mulla Qosim Soqiyev	15
31	Hamroqul Madaminov	27
32	Davronboy Abduraimov	11/2

Jami :

565/2

Baliqchi tumani bo'yicha komissiya raisi :

imzo.

Kotib :

imzo ¹ .

1930 – yil 30 – noyabrida SSSR OGPU kollegiyasi tomonidan OGPU doimiy vakilligining kengashi bo'lib o'tadi . Kengashda VKP (b) MK ning qarori chiqib , uning tarqalishi bilanoq quloq qilish , quloqqa tortish va quloq qilinganlarni surgun qilish keng avj olib ketadi .

Yoppasiga kollektivlashtirish tumanlarda quloq qilish zudlik bilan amalga oshirilishi , barcha rayonlarda kollektivlashtirish haqiqiy ommaviy tus olgan sari quloq qilish o'tkazilishi kerakligi ko'rsatilgan . Zudlik bilan quloq qilinadiganlardan ularning ishlab chiqarish vositalari , hayvonlari , yem va urug'lik zaxiralari konfikatsiya qilinib tortib olinishi ko'zda tutilgan .

Kollektivlashtirish va “ quloq ” qilish avjiga mingan paytlarda bu mudhish siyosatga qarshilik bildirgan , kolxozga kirishni istamagan ko'plab insonlar jazo organlari tomonidan asosiy otuvga , kanslagerlar , qamoqxonalarga hukm qilinganlar ² .

VKP (b) MK O'rta Osiyo buyrosi 1930 – yil 9 – noyabrida “ kuzgi ekin kampaniyasining brishi va bahori paxta to'g'risida ” qaror qabul qildi .

SHu qaror asosida O'rta Osiyo bo'yicha boy – quloqlarga qarshi keskin represiv choralar ko'rildi , ularni turli xududlarga ko'chirish amalga oshirildi ³ .

Baliqchi tumani bo'yicha 1931 – yilda kollektivlashtirish uchun 9310 ta xo'jalik ro'yxatga olinadi . Uning xisobda 17700 ming maydonga ega edi . Tuman bo'yicha esa jami xo'jaliklar 189818 ta bo'lib , 424907 ming maydoni bor edi . Bu xo'jalik orasida 558 ta xo'jalik boy va amaldorlar edi . 1931 –

1. SHamsutdinov R. T. “ Qishloq fojeasi : Jamolashtirish , Quloqlashtirish , Surgun. (O'rta Osiyo Respublikalari misolida) ” , T.: “SHarq” , 2003, 49-50 betlar .

2. SHu asar . 169 – bet .

3. SHu asar . 184 –bet .

yil 1 – fevral va 17 – mart oralig’da xisobga olingan xo’jaliklardan 8752 – ta kolxozlarga birlashtirildi . Bu esa tuman bo’yicha reja 94,0 foizga bajarilgani qayd etildi ¹.

Lekin kolxozlarga birlashtirilgan xo’jaliklar tez orada yana ajrab chiqib keta boshlaydi . Kolxozlarga birlashtirilgan xo’jaliklar yil o’rtalarida deyarli 10 – 15 foizga tushib qoladi . 1931 – yil 20 – avgustga kelib xo’jaliklar qayta kolxozlarga tez fursat ichida birlashtirildi . 1931 – yil 20 – iyunda kollektivlashtirish , umumiy yer maydoni va ish qiluvchi hayvonlar haqida Baliqchi tumani bo’yicha

MA’LUMOT.

Kolxozlar soni	Xo’jaliklarni kollektivlashtirish			Umumiy yer maydoni		
	Tu - man bo’ - yicha	Birlashtiril-gan xo’jaliklar	Kollektiv-lashtirish %	Tuman bo’yi-cha	Birlash-tirilgan xo’jalik-lar	Kollektivlash-tirish %
156	10402	7773	74,7	22100	15130	68,5 ²

1. SHu asar. 206 – bet .

2. Шамсутдинов Р.Т .”Трагедия среднеазиатского киблака : коллективизация , раскула-чивание , ссылка . 1929 – 1955 г. г. Документы и материалы . Том 1. “шарк” , 2006 стр . 257.

O'rta Osiyo buyrosi 1932 – yil yanvarda Farg'na vodiysi paxtakor tumanlarida 1000 xo'jalikni ixtiyoriylik tamoyili asosida Tojikiston SSRga ko'chirishga qaror qildi . O'zSSR Ichki Ishlar Xalq komissarligi kollegiyasi ushbu qarorga ko'ra Tojikistonga vodiyydan ko'plab xo'jalikni ko'chirishga maqsadga muvofiq deb topadi . Safarbarlik ixtiyoriy asosda o'tkazilishi va ko'chirilayotganlarni rasmiylashtirish , ularni olib kelish uchun ketadigan barcha kuch va mablag'lar Tojikiston xisobidan bo'lishi ko'rsatiladi . Lekin bu nomigagina ixtiyoriylik , aslida zo'ravonlik bilan amalgam oshiriladi .

1932 – yil mayida ommaviy ravishda quloqqa tortish , ularni ko'chirish operatsiyasi o'tkaziladi . Bu yilgi surgun ham avval boshida o'sha “ karvonboshi ” Markaz va uning bu joydagi ijrochisi O'rta Osiyo buyrosi ko'rsatmasi bilan amalga oshiriladi .

1932 – yil 10 – aprelda VKP (b) MK Siyosiy buyrosining mahsus ko'chiruvchilar komissiyasi majlisida “Quloqlarni surgun qilish haqida ” ko'rib chiqildi.

Qabul qilingan qarorda quyidagilar ta'kidlangan edi :

a) Joriy yil mobaynida kolxozlardan tozalangan va quloq qilingan 30 – 35 ming quloqlar oilasini surgun qilish zarur deb xisoblansin ;

b) Maxsus ko'chiruvchilar bo'yicha komissiyaning yaqin oradagi majlisida qaysi rayonlardan qancha oilalar surgun qilishga tegishliligi hamda ular qaysi o'lkaning qaysi viloyatlariga yo'nalishi zarurligini aniqlash batafsil ko'rib chiqilsin;

v) OGPU quloqlarni surgun qilishga alohida sinchkovlik bilan yondashishi to'g'risida joylarga ko'rsatma berish taklif etilsin;

g) OGPU ga surgun qilish belgilangan quloqlarning hammasiga ularning mehnatidan foydalanish yuzasidan xo'jalik tashkilotlari bilan shartnoma tuzish taklif qilinsin;

d)OGPU ga o'n kun muxlatda ittifoq moliya komissarligiga quloqlarni surgun qilish bo'yicha xarajatlar sistemasini taqdim etish , mazkur sistemani ko'rib

chiqish, rezerf fondidan ajratish to'g'risida iltimosnoma bilan kirish taklif etilsin ¹.

O'zKompartiya Markaziy Komiteti kotibi Lepa barcha tumanlarga telegramma yo'llab, ulardan o'z hududlarida qancha quloq xo'jaliklari bor, ulardan qanchasi Adliya Komissarligi tizimida tergov qilinayotgaligi haqida ma'lumot so'ragan. Unga javoban tumanlardan kelgan ma'lumotlarga qaraganda, respublikadagi 41 ta tumanda 1932 – yil mayidagi operatsiya arafasida 4477 quloq xo'jaliklari bo'lib, ular orasida mehnatga layoqli 1047 erkaklar bo'lgani, 575 erkak respublika Adliya Komissarligi yo'li bilan ularning har biriga uch yildan oshmagan qamoq jazosi berilgani qayd etilgan. Ularning tumanlararo miqdori quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan :

№	Tumanlar	Mehnatga yaroqli quloq xo'jaliklari miqdori va erkaklar soni	Adliya Xalq Komissarligi yo'li bilan qamoqqa olinib tergov qilinayotganlar va 3 – yildan oshmagan qamoq jazosi olganlar
1	Voroshilov (Qo'rg'ntepa)	122	
2	Baliqchi	32	
3	Asaka	228	
4	SHaxrixon	53	
5	Marhamat	81	22

1. SHamsutdinov R. T. “ Qishloq fojeasi : Jamolashtirish , Quloqlashtirish , Surgun. (O'rta Osiyo Respublikalari misolida) ” , T.: “SHarq” , 2003, 242 – bet.

6	Andijon	183	21
7	Izboskan	105	18
8	Oyim	53	12
9	Jalaquduq	56	42

Bu mahbuslarning katta qismi qamoq jazosini respublika va undan tashqari begona yurtlarda o'tagan ¹.

1932 – yil 1 – mayigacha CHinobodda 648 “quloq” xo'jaligi aniqlanib, undan mehnatga yaroqli 32 kishi qamqqa olingan, GPU yo'li bilan esa 93 kishi qamalgan ².

Quloqqa tortish va quloq xo'jaliklarini surgun qilish bo'yicha ajratilgan xodimlar bilan yo'riqnomaviy kengash 1932 – yil 12 – mayda o'tkazilishi va quloqqa trtilgan oilalar boshliqlari va mehnatga yaroqli quloqlar barcha uchaskalar bo'yicha bir vaqtning o'zida o'tkazilgan .

Baliqchi tumani siyosiy komissiyasi operatsiyani 12 – maydan 13 – mayga o'tar kechasi o'tkazadi . Quloq xo'jaliklari uylari tintuv qilinib , oila boshliqlari hibsga olinadi , qochib ketganlar ushlab qolinadi . Operatsiya chog'ida ro'yxatga kirmay qolgan yangi quloqlar topiladi . 100 xo'jalik quloqqa tortiladi, siyosiy komissiya tekshiruvi natijasida 9 xo'jalik ozod qilinadi .

Rejadagi 78 xo'jalik o'rniga 91 xo'jalik quloq qilinib surgun qilinadi . Baliqchi uchaskasidan 15 , Haqqulobod uchaskasidan 14 , Guliston uchaskasidan 12 , Eski Haqqulobod uchaskasidan 18 xo'jalik , ya'ni 125 erkak , 98 ayol , 150 bola , jami 375 kishi surgun qilinadi . Ularning mulki , ot – ulovi kolxozga berib yuborilgan .

Tyman bo'yicha quloqlar badarg'a etilishi bilan har bir qishloqda qizil

1. SHu asar . 243-244 – betlar .

2. SHu asar . 252 –bet

armiyachilar otryadlari tashkil bo'ladi Qo'shtepa saroyidan 31 kishi , CHinoboddan 20 kishi Xo'jaboddan 25 kishi shu otryadlarda faoliyat ko'rsatgan ¹.

“ O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari ” asarida ham xuddi shu haqida to'xtalib o'tiladi . “ 1932 – yil 12 – 13 may kunlari Andijon okrugi Baliqchi tumani siyosiy hay'ati tomonidan CHinoboddan 14 xo'jalik (81 kishi) , Baliqchi uchaskasidan 15 ta xo'jalik (42 kishi) , Haqqulobod uchaskasidan 14 , Guliston uchaskasidan 8 xo'jalik (21 kishi) , Qo'shtepasaroydan 10 ta xo'jalik (49 kishi) , Sizadan 12ta xo'jalik (44 kishi) , Eski Haqqulobod uchaskasidan 14ta xo'jalik (54 kishi), Xo'jaboddan 18 ta xo'jalik (73 kishi) , tuman bo'yicha jami 91 ta xo'jalik (375 kishi) surgun qilinadi . Surgun qilinganlarning 125 nafari erkaklar , 98 nafari ayollar , 150 nafari bolalar edi . Ular soqchilar va qiziltayoqchilar nazoratida Haqqulobod komendaturasiga keltirilib , bir necha kun shu yerda turganlardan so'ng surgun qilindilar. Ularning butun mol – mulki kolxozlarga berildi ².

Bu kabi quloqqa tortish va surgun qilish operatsiyalarida “ siyosiy uchlik ”lar va mahsus xodimlar butun respublikada bo'lganidek , Andijon okrugida ham qo'pol xatolarga yo'l qo'yganlar , qishloq aholisiga nisbatan zo'ravonlik qilganlar .

Umuman 1932 – yilning 28 – mayigacha bo'lgan davrda Andijon tezkor sektoridan Andijon okrugining 10 ta tumani bo'yicha jami 1294 xo'jalik surgun qilingan . Ushbu xo'jaliklar 5484 kishini tashkil qilib , ulardan 1810 tasi erkaklar , 1387 tasi ayollar , 2287 tasi bolalar bo'lgan . Ular tumanlan bo'yicha quyidagi miqdordadir :

1. SHu asar . 257 – 258 betlar.

2. SHamsutdinov R. T. “O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari . T.: “SHarq”, 2001. 95 – bet.

1. Andijon tumanidan – 101 xo'jalik , 400 kishi (119 erkak , 107 ayol , 127 bolalar);
2. Izboskan tumanidan – 96 xo'jalik , 891 kishi (291 erkak , 76 ayol , 127 bolalar);
3. Norin tumanidan – 198 xo'jalik , 891 kishi (291 erkak , 298 ayol , 352 ta bolalar);
4. Baliqchi tumanidan – 90 xo'jalik , 372 kishi (125 ta erkak , 98 ta ayol , 149 ta bolalar);
5. Qo'rg'ntepa tumanidan – 196 xo'jalik , 729 kishi (236 ta erkak , 165 ta ayol, 328 ta bolalar);
6. Oyim tumanidan – 99 xo'jalik , 450 kishi (138 ta erkak , 113 ta ayol , 199 ta bolalar);
7. Marhamat tumanidan – 142 xo'jalik , 635 kishi (197 ta erkak , 153 ta ayol , 285 ta bolalar);
8. Asaka tumanidan – 163 xo'jalik 749 kishi (246 ta erkak , 196 ta ayol, 307 ta bolalar);
9. Jalaquduq tumanidan – 107 xo'jalik , 416 kishi (144 erkak , 101 ta ayol, 171 ta bolalar);
10. SHahrixon tumanidan – 129 xo'jalik , 520 kishi (173 ta erkak , 130 ta ayol , 217 ta bolalar) ¹.

Besh kitobdan iborat “ Qatag'on qurbonlari ” kitobining beshinchi kitobida Baliqchi tumanidan jami 56 kishi qatag'on qilinadi , undan 48 kishi otuvga , 8 kishi esa 10 – yil muddatga qamoq jazosi berilgan .

1929 – yil dekabr oyi oxiridan 65 kun ichida mamlakatni shu qadar

1. Шамсутдинов Р.Т. ”Трагедия среднеазиатского кишлака : коллективизация , раскулачивание , ссылка . 1929 – 1955 г. г. Документы и материалы . Том 1. “шарк” , 2006 стр . 257.

larzaga soldiki , bu larza o'sha 1917 – yil oktyabrining 10 kunida yuz bergan voqealardan bir necha bor daxshatli bo'ldi. SHu kunlar ichida 130 mlndan ortiq dehqonning hayotiga , asosiga bolta urildi . Bir vaqtning o'zida kolxozlar tuzish va quloqlarni tugatishdan iborat ikki jarayon yuz berib , u ko'plab iplar bilan bog'lanib ketdi . “Quloqlarni tugatish ” kollektivlashtirish uchun moddiy baza bo'ldi . 1929 – yil oxirlaridan 1930 –yil o'rtalarigacha 320 mingdan ziyod quloq xo'jaliklari tugatildi .

“Quloqlar ” ni tugatish oqibatida qishloq eng tadbirkor , epchil , o'ziga to'q, mustaqil ish ko'ruvchi , xo'jalik yurituvchi dehqonlardan mahrum bo'ldi . Qishloqda kollektivlashtirishga qarshilik ko'rsatgan qishloq aholisining ruhi keskin tushib ketdi . Ayniqsa , “quloq ” qilinib , Ukraina , SHimoliy Kavkaz , Qozog'iston va O'zbekistonning ch'l – dasht tumanlaridaga badarg'a qilinganlar va ularning achinarli taqdiri dehqonlarda kolxozga kirmaslik ana shunday yomon oqibatlarga olib kelishiga majbur bo'ldilar ¹ .

Baliqchi tumanida kollektivlashtirish va quloqlashtirish davrlarida sovet hokimyatiga bo'ysunmagan kimsalarni jazoga torgan va surgun qilib yuborgan . SHunday insonlardan biri Mamajonov Abduraim edi . Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha bu kishini izlab xonadoniga kelganimizda uning nevarasi Orifjonov Abduqodiraka bilan uchrashdik . Abduqodiraka esa biz bilan suhbat chog'da bobosi haqida eshitgan , bilganlarini bizga aytdi, u: “ Mening bobom Mamajonov Abduraim 1912 – yil Baliqchi tumani A'lam qishlog'da tug'lgan . U anch savodli, o'rta maktabni tamomlagan insonlardan derdi – rahmatli onam. 1929 – yil kollektivlashtirish boshlanganda bobomning salkam 39 tanob yeri bo'lib , u yerda bobom qishloq odamlarini ishlatar va 'zini ham ko'p mehnat qilar edi . SHu yillarda buvim Mamajonova Roziyaga uylanadi . 1933 – yil boshlarida bobom

1. SHamsutdinov R. T. “ Qishloq fojeasi : Jamolashtirish , Quloqlashtirish , Surgun. (O'rta Osiyo Respublikalari misolida) ” , T.: “SHarq” , 2003 , 63 - 64 betlar.

o'z yerlarida odam ishlatib, ularni "qul" sifatida ko'rayotgan, ishlatmoqda degan sabab bilan "quloq" sifatida qo'lga olinadi va u Ukrainaning Kaxovskiy tumaniga surgun qilinadi. Bobom u joyda amakim SHakirjon (1933 – yili tug'ilgan) va Abduraimova Nazokatxon (1935 – yili tug'ilgan) farzandlari dunyoga kelgan. Bobom va buvim juda ham ko'p qiyinchiliklar, ocharchilikni boshdan kechirishadi. 1942 – yil bobomni ikkinchi jahon urushiga ketishi esa oilada yana ham ko'plab qiyinchiliklarni olib kelgan. Onamning eslashicha bobomni urushdan qaytishini uzoq vaqt kutishgan, lekin 1944 – yil oxirlarida bobomdan qora xat kelgan - derdi onam. SHu bilan oilamiz Ukraina hokimiyatiga ariza yozib, 1947 - yil bahorida buvim, amakim va onam o'z uyiga qaytib kelishgan. Amakim bundan ikki yil oldin vafot etdi. Onam esa bundan sakkiz yil oldin qazo qilgan. Biz oilamiz bilan o'tganlarni yod etib turibmiz ”¹ – deb suhbatini tamomladi Abduqodiraka.

Yana bir shunday insonlardan biri Isaqulov Burxayit – 1938 yil 10 – fevral kuni Ukrainadagi "uchlik" tomonidan qamoqqa olinadi va 13 – aprelda otuvga hukm etilgan. Unga qo'yilgan ayb: Quloq, surgun qilingan. 1928 – yildagi quloqlar qo'zg'olonida faol qatnashgan, 1923 – 1924 yillarda bosmachilarni ot – ulov, yem – xashak bilan ta'minlab turgan, kolxozlashtirish davrida kolxoz tuzumiga qarshi faol kurashgan, yer – suv isloxoti, xotin – qizlar ozodligiga qarshi diniy targ'bot olib borgan. Uning surgundaligida mehnat uchun k'chirib keltirganlar orasida Stalin ko'istitutsiyasini buzishga hamda ularning mehnat posyolkalaridan qochishlarini ta'minlashga qaratilgan targ'bot ishlarini olib borganligi xujjatlarda rasmiylashtirilgan.

Biz ushbu honadonga tashrif buyurganimizda honadon egasi Xayitov Nasimjon ota bilan uchrashdik. Biz u bilan suhbat chog'ida qo'limizdagi

1. Ushbu esdalik X.Xudayberdiyev tomonidan Orifjonov Abduqodiraka xonadonida hotira esdalikidan yozib olindi. 2011 – yil 27 – mart.

ma'lumotlarni otaga ko'rsatdik . Nasimjon ota otasi haqida suhbatini shunday boshladi : “ mening otam Isoqulov Burxait 1867 – yil Baliqchi tumani A'lam qishlog'da tug'lgan . Otam 1931 – yil oz oila azolari bilan onam Isaqulova Komilaxon (1870 – yili tug'lgan) , o'g'illari Botirjon (1903 – yil tug'lgan) , SHerali (1907 – yili tug'ilgan) , qizlari Xosiyatxon (1904 – yili tug'lgan) , Odinaxon (1910 – yili tug'ilgan) , Jamilaxon (1911 – yili tug'ilgan) bilan Ukrainaning Kaxoviskiy tumaniga surgun qilinadi . Surgun qilinayotganda otamning kasbi – dehqonchilik , ijtimoiy ahvoli – boy , 32 tanob yeri (2,6 ga) bo'lgan ekan . O'zining chorvalari , ikkita oti , xo'kizi va oltita yashaydigan uyi bo'lgan . U bosmachilarga yordam berganlikda ayblanib surgun qilingan . Kaxoviskiyda ko'plab ayblar bilan sudlanib otib tashlanadi . Oila azolaridan dadam SHeralibek va onam Jannatxonlar 1930 – yil turmush qurishgan . Amakim oilasida 1934 – yili ayoli Soxibaxon va farzandi Erkinjonlar ocharchilikdan vafot etishadi .

Ammalarim Odinaxon va Jamilaxonlar ham shu yili vafot etishadi . Amakim 1941-yil urushga ketib qaytib kelmagan . Ko'plab arizalar natijasida 1946 – yil uylariga qaytib kelganmiz . Men 1936 – yil surgunda Ukrainada tug'ilganman .Men ham ushbu voqealarni guvohiga aylanganman , esimda – deb suhbatini davom ettirdi , - amakim urushga ketayotgan paytda buvim rossa yig'lagan edi . Buvim shuncha yo'qotishlar yana bormidi deb , eson – omon borib kelishini oq – fotixa bilan urushga jo'natadi . Amakim 1942 – yilda urushda halok bo'lganligini bildiruvchi qora xat kelgan o'sha kuni xech ham unutib bo'lmaydi . Sababi amakimdan avlod qolmagan edi . Qaytib kelganimizdan keyin ko'p o'tmasdan 1947 – yil buvim 77 yoshida bu olamdan o'tdi . Dadam ham buvimdan so'ng uzoq yashamadi .

Mana biz hozir axil oila bo'lib, o'sha zamonlarni yod etib , xudoga shukrlar aytib , mustaqilligimiz abadiy bo'lishini shukrona keltirib yuribmiz . Prezidentimizga ham qatag'on qurbonlarini yod etib shunday sharoitlar yaratib berganligi uchun katta rahmatlar aytaman . O'sha zamonda yashagan ko'plab yurtdoshlarimiz shu kunlarni

orzu qilib yashagan edi ”¹ deb o'z suhbatini tamomladi Nasimjon ota .

Bunday surgun azobi , o'zga yurtlarda sarson bo'lib, qiyinchilik , ocharchiliklar oqibatida o'lib ketgan qanchadan – qancha yurtdoshlarimiz qismati mana endi mustaqillik tufayli yuzaga qalqib chiqmoqda .

1929 – 1938 – yillarda Turkistondan , jumladan , O'zbekistondan begona yurtlarga 1 mln 700 ming kishi surgun qilingan b'lib , ular Sibir , SHimol , Ukraina , Qozog'iston , Uzoq SHarq , Ural , SHimoliy Kavkaz , Turkmanistonning sahro hududlariga “quloq ” lar mehnat qiladigan “ Mahsus qishloq ” larga , kanslagerlarga ko'plab yurtdoshlarimiz surgun qilingan . Ularning ko'plab qismi ochlikdan , sovuqdan, kasallikdan o'lib ketadi . Ana shunday bedodliklarni ko'rib turib surgundagilarning ma'lum qismi “ mehnat posyolkalaridan ” qochib ketishga uringan . O'zbekiston hududidagi “ quloq qishloqlari ” dan 1935 – yili 1531 kishi , 1936 – yili 844 kishi , 1937 – yili 816 quloq qochib ketgan . Ukrainadagi “Mehnat posyolkalari ” dan 1932 – yili 961 kishi , 1933 – yili 473 kishi , 1943 – yili 333 quloq , SHimoliy Kavkaz “ Mehnat posyolkalaridan ”dan 1932 – yil 6987 kishi, 1933 – yili 7109 kishi qochib ketgan . Ularning bir qismi ushlanib joyiga qaytarilgan , bir qismi qamoq va otuv jazosiga hukm etilgan .

Xalqimizning mana shunday mard va mehnatkash o'g'lonlarining bevaqt hazon bo'lishlari va yod ellarda nom – nishonsiz bedarak ketganlari elimiz insonlarini xamisha nafratini qo'zg'otgan .

1.Ushbu esdalik X.Xudayberdiyev tomonidan Nasimjon ota xonadonida hotira esdalikidan yozib olindi . 2011 – yil 29 – mart .

2. “Katta terror” qurbonlari (Ishodxo’jayev G’ozixon Eshon,
Mirazimov Mulla Akbar , Nuriddinov Eshon Najmiddin, Avulov Mulla Qurbon)
uning hayot yo’li va taqdiri.

Prizidentimiz I.A.Karimovning 2001-yil 1-mayda qabul qilgan “Qatag’on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to’g’risida” gi farmonida mana bular yozilgan edi: “El-yurtimiz ozodligi va erkinligi yo’lida , xalqimizning qadr-qimmatini, or-nomusini , milliy an’analarimiz va urf-odatlarimizni himoya qilishda qurbon bo’lganlar, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda qurbon bo’lganlar, xotirasi minnatdor avlodlar yodida abadiy saqlanib qoladi ¹.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1999-yil 22-iyuldagi “Vatan ozodligi yo’lida qurbon bo’lgan fidoiylar xotirasini abadiylashtirish to’g’risida ” gi qarorida shaxid bo’lgan yurtdoshlarimiz nomini abadiy saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida ko’p jildlik “Qatag’on qurbonlari ” xotira kitobini yaratish va nashr etish vazifasini qo’ygan.

Ana shu vazifani bajarish borasida olib borilgan izlanishlar natijasida bosh kitobdan iborat monografik tadqiqot kitoblari nashr etildi. Bu kitoblarning ilk nashri “Репрессия 1937-1938 г-г . Документы и материалы “ Выпуск 1. “Sharq” , “Toshkent , 2005. “Qatog’on qurbonlari” (1937 yil 10-avgust 5-noyabr). Ikkinchi kitob . – Т “Sharq” 2007. “Репрессия “ (1937-1938 г-г) Документы и материалы выпуск 3 “Жертвы Большого террора из Узбекистана1937 –год , ноябрь “ Т шарк 2007 “Репрессия” 1937-1938 г-г Документы и материалы Выпуск 4 “Жертвы Большого террора из Узбекистана” 1937-год Декабрь Т. “Шарк” 2008. “Qatog’on qurbonlari” (1938-yil febral , sentabr) Beshinchi kitob .

1. Karimov I. A. “Xalq xotirasi oldida bosh egamiz” _ “Sharq” T.: 2001-yil . 14-bet

Т ” Шарқ ” 2009. Bundan tashqari jamoatlashtirish , quloq qilishning fojiali oqibatlarini va “katta terror” yuzasidan Rossiyada har xil janrlardagi adabiyotlarda ham o’z ifodasini topgan va topmoqda. ilmiy jihatdan yangicha talqin qilish borasida I. E. Zelenen, V. P. Danilov, V. P. Popov , N. Mixaylov, N. Tentsov va boshqalarning ishlari diqqatga sazovor ¹ . mazkur mavzu ilmiy-ommaviy kitoblarga, darsliklar, o’quv qo’llanmalari va ma’lumotnomalarda ham o’zining yangicha talqinini topmoqda ² .

1937-yil 30-iyuldagi SSSR ichki ishlar xalq komissari Nikolay Ensov imzosi bilan “Sodiq quloqlar , jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlarini qatag’on qilish bo’yicha operatsiya to’g’risida” gi 00447-sonli operativ “mutloqa maxfiy” tamg’a ostidagi buyruq qabul qilindi . Unda antisovet uyushmalarini tergov qilish materiallarida , muqaddam qatag’on qilingan, qatag’on bo’lishdan yashirinib yurgan, lagerlardan , surgundan va mehnat posyolkalaridan qochib kelgan sobiq quloqlarining katta qismi qishloqlarda o’rnashib qolganligi qayd etilgan. Shuningdek , cherkovchilar , sektachilar, siyosiy partiyalar , eserlar, dashnoqlar,

1. Зеленин И.Е. «Осуществленные политики и ликвидации кулачества как класса (осен ,1930 -1932 г.г.)» , «История СССР » , М. ,1990 , № 6; Данилов В. П. « Коллективизация ... Переписка на исторические темы в советской России. 1923 – 1953 г.г. » (Источная и их интерпретация) отечественный архив , 1992 , № 2 ; Михайлов Н. , Тепцов Н. «Чрезвычайщины» , « Родина » , 1989 , № 8 .

2. Данилов А.А. История России . XX век . Справочные материалы . Москва , « Гуманитарный издательский центр Владос » , 1996 ; Геллер М ., Некрич А. История России . 1917 – 1995 . В 4 – X томах . Учебное пособие для студентов высших учебных заведений . Москва , Издательство « МИП » , Издательство «Агар» , 1996 ; Шестинов Ю.А. История России XX – век Учебное пособие для студентов вузов , М . ,1998 ; Моряков В . А . , Шестинов Ю . А . История России Пособие для старшеклассников и абитуриентов . Издательства МГУ , 1996 ; Энциклопедия для детей . История России от дворцовых переворотов до эпохи Великих реформ , Москва ,» Аванта + » , 1995 .

musovatchilar ,ittihodchilar reanabrintlar , turli jinoyatchilar , residivist - o'g'irilar , talonchilar jazoni o'tab , qamoqdan qochib kelib , qatog'on bo'lishdan yashirinib yurganlar ham qishloq va shaharlarda in qurib olganliklari buyruqda takidlangan . Buyruqda operaciyanı 1937 yil 5avgustdan boshlab to'rt oy muddatda yakunlash kerakligi ko'rsatilgan . O'rta Osiyo respublikalarida operaciya 1937 yil 10 avgusdan boshlanadigan bo'ldi.

Buyruq bilan respublikalar , o'lkalar va viloyatlar, "uchliklar" tarkibi ham tasdiqlangan . Respublika ichki ishlar organlari huzuridagi "uchlik" tarkibi bevosita "markaz" tomonidan tanlangan va tasdiqlangan.

Respublika "uchligi" o'sh payitdagi ichki ishlar xalq komiesari {rais} , O'zbekiston Kompartiyasi markaziy Komitetining birinchi kotib , xalq Komissari soveti rayisining o'rinbosari {azo} lardan iborat qilib tasdiqlangan. "Uchlik" da respublika prokurori, kotib sifatida N K B D Davlat xafsizligi boshqarmasi 8- bo'lim boshlig'i ishtirok etishi ko'rsatilgan. 1937 yil 10 avgustdan "uchlik" yig'ilishlari boshlangan. SHu 10 avgustdan 1938 yil 1- yanvargacha jami 10700 kirish qamoqqa olingan. SHundan 5924 kishi sobiq "quloqlar" ,1679 kishi jinoyatchilar, 3097 kishi "sovetlarga qarshi unsurlar" sifatida qotog'on qilingan. Ulardan 3613 kishi 1- toifa bo'yicha otuvcha, 7087 kishi 2- toifa bo'yicha 10 yoki 8 yil muddat bilan qamoq jazosiga hokum qilingan. Otuvcha xukum qilinganlarning 1376 nafari sobiq quloqlar, 952 nafari jinoyatchilar va 1285 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan, 8,10 yilga hukm qilinganlarning 4548 nafari sobiq quloqlar, 727 nafari jinoyatchilar . 1812 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan 1. Katta miqdordagi

1. SHamsutdinov R. T. " Qatag'on qurbonlari " (1938 - yil fevral , setyabr)Beshinchi kitob , T.: "SHarq" 2009 , 8- 9 betlar.

qatog'on qurbonlaridan, y'ni 10700 kishidan 8338 nafari nomma- nom aniqlandi va ular haqidagi asosiy ma'lumotlar e'lon qilindi. Ulardan 2358 nafari otilgani, 5903 nafari 10, 8 yil qamoq jazosiga tortilgani, 77nafari ozod etilgani ma'lum bo'ldi¹. Repressiya moshinasini to'htatish og'ir kechdi, uni 4 oy muddatda tugatish mumkun bo'lmadi, 1938 yilda ham davom etdi va uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichni 1938 yilning fevrali bilan belgilash mumkun. BKP Markaziy Komiteti 1938 yil 31 yanvarda "SSSR NKBD ning 1937 yil 30 iyuldagi buyrug'i bo'yicha repressiya qilish uchun qo'shimcha limintlarni tasdiqlash to'g'risida" qaror qabul qildi. Uni markaziy Komitet Bosh kotibi I. Stalin imzolab, viloyatlar, o'lkalar partiya Komitetlariga, milliy kompartiyalar markaziy Komitetlariga yo'lladi. Qaror bilan SSSR NKBD ning reperessiya qilinadigan sobiq quloqlar, jinoyatchilar va faol antisavet elementlarini, reperessiya qilish uchun qo'shimcha limiti miqdori ham ko'rsatilgan. 19 mintaq bo'yicha repressiya qilinadiganlar miqdori ham belgilanib qo'yiladi. O'zbekiston bo'yicha 2 ming kishi 1- kataga roya bo'yicha, ya'ni otuvga, 500 kishi 2- kategoriya bo'yicha, ya'ni 10,8 yil qamoq jazosiga repressiya qilinishi ko'zda tutilgandi. Repressiyani o'tkazish 1938 yil 15 martgacha tuganlanishi ko'rsatilgandi. Ma'lumki, N. I. Ejovning 1937 yil 11 dekabrda telegrammasida "quloqlar operatsiyasi" bo'yicha faolyatda bo'lgan "uchlik" lar o'z ishlarini 1938 yil 1 yanvargacha tugallashi,

1. SHamsutdinov R. T. va hammualliflikda "Репрессия 1937-1938 г-г . Документы и материалы " Выпуск 1. "Sharq" , "Toshkent , 2005. "Qatog'on qurbonlari" (1937 yil 10-avgust 5-noyabr). Ikkinchi kitob . – T "Sharq" 2007. "Репрессия " (1937-1938 г-г) Документы и материалы выпуск 3 "Жертвы Большого террора из Узбекистана 1937 –год , ноябрь " Т шарк 2007 "Репрессия" 1937-1938 г-г Документы и материалы Выпуск 4 "Жертвы Большого террора из Узбекистана" 1937-год Декабрь Т. "Шарк" 2008.

mahalliy ichki ishlar organlari operaciya bo'yicha yakunlangan hisobotlarini topshirishlari kerak edi. BKP Markaziy Komitetining 1938 yil 31 yanvardagi qarori bilan o'sha avvalgi "uchlik" lar faolyati muddati uzaytirildi. Barcha o'lkalar ishni 1938 yil 15 fevralgacha tugallashi belgilab qo'yildi. SHu tarkibda "uchlik" 1938 yil 4fevralda 2 ta , 7 fevralda 2 ta , 9 fevralda 2 ta, 10 fevralda 3 ta , 13 fevralda 3 ta, 14 fevralda 1 ta, 16 fevralda 5 ta, 17 fevralda 3 ta, jami 21 ta yig'ilish o'tkazgan. Bu yig'ilishlarda 2491 mahbus ustidan hukm chiqarilib, ulardan 2086 mahbus otuvga, 398 mahbus 10 yil muddatga, 2 mahbus 8 yil muddatga mehnat tuzatuv logerlariga qamoqqa hokm etildi, 4 mahbus tergov vaqtida vafot etgan, 1 mahbus ozod qilingan. Kuniga o'rtacha 310- 315 kishi ustidan hukm chiqarilgan . Masalan , 10 fevraldagi yig'ilishda 472 mahbus , 16 fevraldagi yig'ilishda 553 mahbus ustidan hukm chiqarilgan . Hukm chiqarishda hatto ayrim mahbuslarning o'zlari ishtirok etmagan, "uchlik" joyiardagi operativ sektorlar taqdim qilgan ayiblov xulosalariga asoslanib hokum chiqarilgan. Hukmga tortilgan mahbuslarni xududlar bo'yicha taqsimlanganda, eng ko'p miqdorda qatag'on qilinganiar xorazm okrugidan, Andijon okrugidan, Buxoro okrugidan, Samarqand okrugidan, Qoraqolpog'istondan , Namangan shahridan, Qo'qon shahridan, shuningdek, boshqa hududlardan bo'lganligi aniqlandi. Qatog'on qilinganlarning ijtimoiy tarkibida sobiq quloqlar 1771 kishi ishchi- xizmatchilar 583 kishi , dindorlar, ruhoniylar, imom va eshonlar 153 kishi , sobiq savdogarlar 72 kishi , hibsga olinganda mashg'uloti aniq bo'lmaganlar 792kishi edi. Milliy tarkibida esa o'zbeklar 1947 kishini, qoraqolpog'lar 142 kishini tashkil qilgan , 402 kishi esa rus va boshqa millat vakillari bo'lgan. 1938 yildagi qatog'onlarning ikkinchi bosqichi o'sha yil sentiyabiridan boshlangan. BKP MK

Siyosiy buyro'si 1938 yil 9 sentiyabrda SSSR ichki ishlar xalq komissarining o'rinbosari L. P. beriyaga 1-rang Davlat xavfsizligi komissari degan unvon berishga qaror qiladi. BKP Markaziy Komiteti Siyosiy buyro'si 1938 yil 15 sentiyabrda NKBD to'g'risidagi masala yuzasidan qaror qabul qildi, Ichki ishlar xalq komissarligining 1937 yildagi №00485, №00439 hamda 1938 yildagi №302 va №326 – sonli buyruqlari bo'yicha qamoqqa olingan aksilinqilobiy milliy kontingentlar bo'yicha ko'rilmay qolgan ishlarni joylardagi maxsus “uchlik” larga berish haqidagi taklifini ma'qulladi. Maxsus “uchlik” lar oblastlar, o'lkalar va milliy kompartiyalar markaziy Komitetlari birinchi kotiblari, NKBD rahbarlari va prokurorlar tarkibida tuzilishi ko'rsatildi. Bu “uchlik” lar 1938 yil 1 avgustgacha qamoqqa olinganlar ishini ko'rib chiqishi va bu ishni 2 oy muddatda tugallashi talab qilindi. Siyosiy buyroning 1938 yil 17 sentiyabrdagi qarorini rivojlantirish uchun SSSR Ichki ishlar xalq komissarligining №00606 – sonli maxsus “uchlik” lar ishi tartibi to'g'risida buyrug'I qabul qilinadi va unda jazo siyosatini yumshatishga qaratilgan quydagi tadbirlar ilgari surildi; Birinchidan, xorijliklarni qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lgan turli qiyinchiliklarni e'tiborga olib, “maxsus uchliklar xorijlik fuqarolarga qo'zg'atilgan ishlarni ko'rmasligi” qayd qilingan. Ikkinchidan, “maxsus uchliklar” hukm chiqarganlarida 1937 yil 25 avgustdagi buyruq asosida birinchi va ikkinchi kategoriyalar bo'yicha ish ko'rsalarda, unga qo'shimcha, yangilik tarizida bu “maxsus uchliklar” ishni to'laroq tekshirish uchun qaytarib yuborishi va ayblanuvchini, agar jazo beruvchida etarli ma'lumotlar bo'lmasa, qamoqdan ozod qilish haqida qaror chiqarish imkoniga ega bo'lgan.

SSSR NKVD ning 1938 – yil 17 – sentyabrdagi №00606 – sonli operativ buyrug'iga muvofiq O'zbekiston bo'yicha respublika Ichki Ishlar Xalq Komissari raisligida O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetning birinchi kotibi (a'zo) , Respublika Prokurori (a'zo) lardan iborat “ uchlik ” bor – yo'g'I ikki kun , ya'ni 21 -22 sentyabr kunlarida yig'lish o'tkazib , 11 ta bayonnoma imzolangan .

Bayonnomalarda 475 mahbus ishlari ko'rib chiqilgani qayd etilgan . Ulardan 98 kishi otuvga , 245 kishi 10 yilga , 31 kishi 8 yilga , 76 kishi 5 yilga qamoq jazosiga hukm qilingan , 21 nafar mahbusning ishi qayta ko'rib chiqish uchun harbiy tiribunaga yuborilgan , 4 nafar mahbus ozod qilingan . “Qatag'on qurbonlari ” kitobining beshinchi jildida “ uchlik ” hukmi bilan qatag'on qilingan 2950 dan ziyod kishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan ¹ .

1938 – yildagi “ Katta terror ” , “ quloqlar operatsiyasi ” ning navbatdagi uchinchi bosqichi o'sha yilning oktyabr – noyabr oylariga to'g'ri keladi . Bu davrda qatag'on qilinganlar ishlari SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyalarining sayyor yig'lishlarida ko'rib chiqilgan .

1936 – yil 1 – oktyabridan – 1938 – yil 1- noyabriga qadar SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi 36906 kishi ustidan hukm chiqargan . SHundan 25355 kishi otuvga , 1059 kishi 15 – 25 yil muddatga , 3598 kishi 10 yil muddatga , 123 kishi 5 – yil muddatga , 61 kishi 3 –yil muddatga qamoq jazosiga , 2 kishi SSSRning ichkarisiga surgun qilishga , 20 kishi boshqa jazo choralari ko'rishga , 30 kishini ozod qilishga , 1188 kishining ishini qayta tergov qilish uchun qaytarib yuborishga hukm qilingan .

1938 – yil 1 – oktyabr boshlarida Toshkentda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor yig'lishlari bo'lib o'tadi . Ko'plab partiya , davlat , jamoat

2. SHamsutdinov R. T. “ Qatag'on qurbonlari ” (1938 - yil fevral , setyabr)Beshinchi kitob , T.: “SHarq” 2009 , 8- 9 betlar.

arboblari , ayniqsa , ziyolilar , adiblar , fan va oiliy o'quv hodimlari , taniqli kishilarning ma'lum vakillari otuvga , 10 , 8 yil qamoq jazosiga hukm qilingan . Oliy jazoga hukm etilganlar o'sha hukm e'lon qilingan kunning o'zidayoq otib tashlahgan . Ular orasida o'zbek xalqining asl farzandlari Abdulla Qodiriy , Abdurauf Fitrat , Abdulhamid Cho'lpon , Rahim Inog'omov , Usmonho'ja Eshonho'jayev va boshqalar bo'lgan.

SHunday qilib , Lenin asos solgan , Stalin takomillashtirgan sovet rejimi qatag'on siyosatining eng yuqori nuqtaga ko'tarilgan davri 1937 – 1938 – yillar fojealarini , bu davr “ katta terror ” davrining kul'minatsion nuqtasi joyi va uni aniqlashda turlicha qarashlar va to'liqlar borligi ma'lum bo'ldi

Bu mulohazalar albatta , munozara talab qilishi tabiiy , biz keltirgan talqinlarning ba'zi – ba'zilari balkim u qadar to'g'ri emasdir , xatto ayrim xatoliklar bo'lish mumkin . “ Katta terror ” fojeasining aybdorlari kimlar , qanday kuchlar ekanligi haqida va bu fojeada faqat Stalinni aybdor qilish , unga yuklash noto'g'ri hisoblanadi .

Sobiq Ittifoqning barcha joylarida bo'lganidek O'zbekistonda ham Markazning direktivasi , buyrug'i tezkorlik bilan bajarildi . Bu mudxish “ vazifa ” ni bajarishda respublika , okruglar , tuman partiya tashkilotlari , Sovetlarning ijroya komitetlari , ichki ishlar xalq kommissarligi va uning joylardagi sektor va bo'limlari rahbarlari , xodimlari jonbozlik ko'rsatadi .

“ Katta terror ” qurbonlari O'zbekiston mustaqillikka erishganimizdan so'ng reabilitatsiya qilindi , nomlari abadiylashtirildi ¹ .

O'zbekistonda yalpi qatag'onlik 30 – yillarning ikkinchi yarmidan respublikada davlat va firqa arbblarini “ xalq dushmani ” sifatida qamoqqa olganlaridan so'ng kuchaydi . Firqa a'zosi bo'lmagan oddiy fuqolrolardan jami

1. O'sha asar , 12 – bet .

bo'lib bu davr qancha odam qatag'on qilinganligini hisoblash qiyin . Ammo shu narsa aniqki , 1937 – yil iyul oyida KOmpartiya Markaziy Qo'mitasi Stalin , Yejov, Vishnevskiy imzosi bilan mahalliy firqa Markaziy qo'mitalarga , NKVD idoralarigava Prokaturalarga “ dushman sinflar , qoldiqlarini yo'qotish ” ishini o'tkazish tartib va ko'lam haqida Mahfiy ko'rsatma yuborilgan ekan . “Qabohat saltanati ” risolasida ta'kidlanishicha ko'rsatmada har bir respublika va viloyat uchun qancha kishi qamoqqa olish kerakligi ko'rsatilgan . Bu galgi reja “ kamtarona ” to'rt foiz etib belgilangan . Sobiq Ittifoqning o'sha paytdagi aholisiga nisbatan hisoblaganda , bu taxminan bir galda 5000000 kishining yostig'ni quritish demakdir ¹.

1937 – yil 30 –iyulda SSSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligining “ Sobiq quloqlar , jinoyatchilar va sovetlarga qarshi unsurlarni qatag'on qilish bo'yicha operatsiya to'g'risida ” gi mutloqa mahfiy №00447 – sonli tezkor buyrug'iga N . Yejov qo'l qo'yadi . Mazkur buyruqqa muvofiq 1937 – yil 5 –avgustdan barcha respublikalarda sobiq quloqlar , faol unsurlar va jinoyatchilarni qatag'on qilish bo'yicha operatsiya o'tkaziladigan bo'ldi . O'zbekiston , Turkmaniston , Tojikiston va Qirg'iziston respublikalarida operatsiya o'sha yil 10- avgustdan boshlanadigan bo'ldi . O'rta Osiyo respublikalari Ichki Ishlar Xalq Komissarligining SSSR NKVDga og'zaki bergan ma'lumotlari bo'yicha qatag'on qilinadiganlar miqdori quyidagicha belgilab berilgan :

Respublikalar	1 –toifa	2 –toifa	Jami
Qirg'iziston SSR	250	500	750
Tojikiston SSR	500	1300	1800

1. “ Qabohat saltanati ” , 28 – bet .

Turkmaniston SSR	500	1500	2000
O'zbekiston SSR	750	4000	4750
Jami	1950	7200	9250

Sovetlar qo'llagan “ Katta terror ” yoki “ Quloqlar operatsiyasi ” ning O'zbekistondagi fojealari 2005 – 2009 – yillarda nashrdan chiqqan arxiv xujjatlari to'plamida o'z aksini topgan ¹.

Surgun jazosini o'tayotgan yurtdoshlarimiz o'sha begona yurtlarda 1937 – 1939 – yillari yana takror qatag'on qilinib , ko'plari otuvga va qamoqqa hukm etilganlar . Kaxoviskiy , Skadoviskiy tumanlarida 1937 – 1939 – yillari O'zbekistonliklardan 300 dan ziyod kishi otuvga , 10 yil , 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan , surgundagilardan ko'plari mehnat frontiga , harbiy frontga olinib , u yerlarda halok bo'lib ketadi .

SHamsutdinov R . T . ning arxiv xujjatlari asosida tayyorlangan Qatag'on qurbonlari ” nomli beshta jilddan iborat kitoblarida Baliqchi tumanida 1937 – 1938 – yillarda qatag'on qilinib , otuvga , 10 – yil va 8 – yil muddatga mehnat tuzatuv lagerlariga jazoga tortilgan yurtdoshlarimizning ismlari nomma – nom keltirib o'tgan .

1938 – yil 4- fevralda “ uchlik ” yig'ilishida 67 – sonli bayonnomasida 72 mahbus otuvga , 49 mahbus 10 yil , 2 mahbus 8 yil muddat bilan jazoga tortilgan . Otuvga hukm etilganlar orasida Baliqchi tumani bo'yicha to'rt kishi shunday

1. SHamsutdinov R. T. va hammualliflikda “Репрессия 1937-1938 г-г . Документы и материалы “ Выпуск 1. “Sharq” , “Toshkent , 2005. “Qatog'on qurbonlari” (1937 yil 10-avgust 5-noyabr). Ikkinchi kitob . – T “Sharq” 2007. “Репрессия “ (1937-1938 г-г) Документы и материалы выпуск 3 “Жертвы Большого террора из Узбекистана1937 –год , ноябрь “ Т шарк 2007 “Репрессия” 1937-1938 г-г Документы и материалы Выпуск 4 “Жертвы Большого террора из Узбекистана” 1937-год Декабрь Т. “Шарк” 2008.

jazoga tortilganlar .

1. Qobilov Xolmirza – 1887 – yil tug’lgan , Baliqchi tumani Xo’jaobod qishlog’idan , hibsga olingan vaqtda mashg’uloti aniq bo’lmagan .

Ko’p yillar davomida hayvon o’g’irlash va har xil narsalar o’g’rlash bilan shug’ullanib , jabrlanganlarga tan jarohati yetkazganlikda ayblangan .

2. Umarov Abdurahmon – 1887 – yil tug’lgan , Baliqchi tumani Baliqchi qishlog’idan , 1921 – yildan 1923 – yilgacha bosmachilik ishtirokchisi , 1933 – yili kolxoz mulkini o’g’irlagani uchun 8 yillik qamoqqa hukm etilgan , jozo muddatini o’tamay qochib kelgan , hibsga olingan vaqtda aniq mashg’uloti bo’lmagan .

Lagerdan qochib kelib , kolxozlarning hayvonlarini o’g’irlash bilan shug’ullanganlikda ayblangan .

3.Xolmirzayev Ergash – 1890 – yil tug’ilgan , Baliqchi tumani Siza qishlog’dan , sobiq quloq , 1934 – yili hayvon o’g’rlagani uchun 3 yil qamoq jazosiga hukm qilingan , hibsga olingan vaqtda aniq mashg’uloti bo’lmagan .

Lagerdan bo’shab kelgandan so’ng jinoyatchilar bilan bog’lanib , doimiy ravishda kolxozchilar hayvonlarini o’g’irlash bilan shug’ullanganlikda ayblangan .

3. Lalilov In’om – 1903 – yil tug’ilgan , Baliqchi tumani Eski Xaqqulobod qishlog’idan , qo’rboshining o’g’li , bosmachining xizmatchisi , 1935 – yili kolxoz mulkini o’g’rlagani uchun 3 yil qamoq jazosiga hukm qilingan , hibsga olingan vaqtda aniq mashg’uloti bo’lmagan .

Lagerdan ozod bo’lib kelgandan so’ng jinoyatchilar bilan bog’lanib , kolxozchilar hayvonlarini o’g’irlash bilan shug’ullangan , hibsga olingan vaqtda aniq mashg’uloti bo’lmagan .

Ichki Ishlar Xalq Komissarligi N. A. Zagvozdin (rais) , O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Akmal Ikromov , O’zbekiston Xalq kommissarlari Soveti raisi To’rabekov (a’zo) lar “ uchligi ” tomonidan 1938 – yil 7 – fevraldagi yig’lishida 69 – sonli bayonnomasida quyidagi 165 mahbusdan 134 mahbus otuvga , 30 mahbus 10 yil qamoq lazosiga hukm etilgan , 1 kishining

tergov ishlari to'xtatilib jazodan ozod qilingan . SHulardan 27 nafari Baliqchi tumanidan edi . Ularning 22 nafari otuvga , 5 nafari 10 yil muddatga qamoq jazosiga tortilgan .

1. Sotboldiyev Abdulhamid – 1888 – yil tug'ilgan , Baliqchi tumani Tumor qishlog'idan , quloqqa tortilganda qochgan , 1917 yildan bandada bo'lgan , uch marta jinoiy javobgarlikka tortilgan , hibsga lingan vaqtda kolxoz a'zosi.

Aksilinqilobiy quloq – siyosatchilar guruxining raxbari bolib , nolegal yig'lishlarda qatnashgan , aholi orasida doimiy ravishda isyonchilik targ'iboti olib borganlikda ayblangan .

2. Ashurov Quvvat – 1888 – yil tug'ilgan , Baliqchi tumani Tumor qishlog'idan , sobiq quloq , bosmachilik ishtirokchisi , hibsga olingan vaqtda kolxoz a'zosi.

Aksilinqilobiy quloq isyonchilarning guruxining a'zosi bo'lib , nolegal yig'lishlarda ishtirok etgan , aksilinqilobiy mag'lubiyatchilik targ'iboti olib borganlikda ayblangan .

3. SHaripov Madamin – 1887 – yil tug'ilgan , Baliqchi tumani Tumor qishlog'idan , sobiq quloq , imom , hibsga olingan vaqtda kolxoz a'zosi.

Aksilinqilobiy quloq isyonchilarning guruxining a'zosi , kolxozchilar orasida aksilinqilobiy mag'lubiyatchilik targ'iboti olib borgan , ocharchilik to'g'risidagi aksilinqilobiy ig'vo mish – mishlar tarqatganlikda ayblangan .

4. Raximov Abdukarim – 1899 – yil tug'ilgan , Baliqchi tumani Tumor qishlog'idan , bosmachilik ishtirokchisi , 1920 – yil bosmachilik faoliyati uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan , imom , hibsga olingan vaqtda kolxoz a'zosi.

Aksilinqilobiy quloq isyonchilarning guruxining a'zosi bo'lib , nolegal yig'lishlarda ishtirok etgan , kolxozchilar orasida aksilinqilobiy mag'lubiyatchilik targ'iboti olib borganlikda ayblangan .

Bular orasida Xoliqov Ahmad , Toshmatov Mirzajon , Temirov Madat , Mamadaliyev Haydarali , Nuraliyev Sotimboy , Rahimov Mamazokir , Bozorboyev

Somatqul , Begmatov madmurod Baliqchi tumani Tauli qishlog'idan , Qurbonov Mulla Sodiq , Dehqonov Ikromali , Abdullayev Abduhamid , Hasanov Ergash , Azimov Abdurahim , O'ljayev Toshtemir , Tursunov Yunus , Hamdamov Mirzarahim , Jo'ra Toshmatovlar otuvga hukm qilingan , Luqmonov Temir , Otajonov Hotamboy , Bo'taboyev Yo'doshlar esa 10 yil MTL qamoq jazosiga hukm qilinganlar . Bunday insonlar O'zbekistn bo'yicha ko'plab topiladi .

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha olib borilgan ishlarimiz natijasida Mirazimov Mulla Akbar , Nuriddinov Eshon Hajmiddin , Avulov Mulla Qurbon va Ishodxo'jayev G'ozixon Eshonlarning hayot yo'li va ularning taqdiri haqida k'plab ma'lumotlarni to'pladik .

Ishodxo'jayev G'ozixon Eshon – 1888 – yil Baliqchi tumani A'lam qishlog'da tug'ilgan. Qo'rboshi bo'lgan . Qo'lga olingan vaqtda kolxoz a'zosi . U kolxozlashtirishga qarshi agitasiya yuritganligi , odamlarni kolxozga kirmaslik va unda ishlamaslikka chaqirgan degan ayblar bilan “ uchlik ” tomonidan 1937 – yil 13 – noyabrda o'n yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga qamoqqa olinadi .

Biz Ishodxo'jayev G'ozixon Eshonni qamoqqa olingandan oldingi va keyingi taqdiri haqida qiziqib uning honadonini izlab topdik va hozirgi avlodlari bilan suhbatlashga erishdik . Ishodxo'jayev G'ozixon Eshonni farzandi G'oziyev Yo'ldoshxon ota bilan suxbat chog'da o'z esdaliklari ,bilganlarini biz bilan baham ko'rdi .

“ Mening otam – deb, gapini boshladi Yo'ldoshxon ota – 1888 – yili Baliqchi tumani A'lam qishlog'da tug'ilgan. Eskicha boshlag'ich maktabni tomomlab, maxalladagi madrasada xam tahsil oladi . Har – har zamonda qo'rboshilaga yordam berib turgan. Mahalladagi katta ustalardan biri bo'lgan . Otam uyimizda ustachilik qilib, qo'rboshilarni miltiq , motorlarni , ot – ulov , omochlarni tuzatish va shu kabi ishlarni amalgam oshirgan . Otamni “ bosmachi ” larga yordam berib , miltiqlarni tuzatib bergan degan ayib bilan qamashgan deb ko'ptakrorlardi - rahmatli onam Ishodxo'jayeva Sojidaxon . Onam 1890 – yil Baliqchi tumani Qo'shtepasaroy

qishlog'ida tavallud topgan . Otamni qamoqqa olgan paytda men 40 kunlik chaqaloq bo'lganman . SHuning uchun men otamni ko'rmaganman . Ko'proq bizga onam aytib berardi . Biz o'sha paytda oilada otam , onam , akam - G'oziyev Muhammadxon , opam - G'oziyeva Mavludaxon va men bo'lganmiz .

Akam G'oziyev Muhammadxon 1927 – yilda A'lam qishlog'da tug'ilgan . Akam ham huddi otam kabi katta usta edi . Opam - G'oziyeva Mavludaxon esa 1930 – yilda shu qishlog'imizda tug'ilgan .

Otamni 1938 – yilning oxirlarida sovetlar qamoqqa olib , Ukrainaning Skadovskiy tumaniga surgun qilishadi . U yerda otam juda ham qiyinchilik , ocharchilikda mehnat qiladi ”¹.

SHu mahallada istiqomat qiluvchi Miryoqubov Mamatshakir otaning aytishicha “ Ishodxo'jayev G'ozixon Eshon mening otamni do'stlaridan biri edi. Otam u to'g'risida menga ko'p marta gapirib bergan . G'ozixon ota juda ham ishchan , mehnatkash va katta ustalardan biri edi derdi . U o'rta bo'yli , sersoqol , ixcham va nurli ko'zlari bilan hammani o'ziga rom eta olardi degan . Otamning aytishicha – deydi , Mamatshakir ota , - G'ozixon otaning aybi bo'lmagan , faqat u usta bo'lib , “ bosmachi ”larga bir – ikki marta yordam bergan , lekin uni bu ishlarini faqat yaqinlari bilgan , shunday bo'lsa ham ayrim qishloqdagi nopok kimsalar hoinlik qilib qamoqqa tiqishadi . SHundan keyin uning oilasiga qora tamg'a , ya'ni “ xalq dushmani ” tamg'si bosiladi ”² - deb , aytib o'tdi suhbat chog'da Mamatshakir ota.

Ishodxo'jayev G'ozixon Eshonning hayot yo'li va surgun bo'lganda keyingi taqdiri to'g'risida uning nabirasi G'oziyev Jo'raxon aka ham bobosi haqida o'z

1. Ushbu esdalik X. Xudayberdiyev tomonidan 2011 – yil 30 – mart kuni hozirgi Oltinko'l tumani A'lam qishlog'da Yo'ldoshxon ota xonadonida yozib olindi .

2. Ushbu esdalik X. Xudayberdiyev tomonidan 2011 – yil 27 – mart kuni hozirgi Oltinko'l tumani A'lam qishlog'da Mamatshakir ota xonadonida yozib olindi .

hotira esdaliklarini suhbat chog'ida bunday boshladi : “ Bobongni surgunga olib ketgandan so'ng ancha qiyinchiliklarni boshdan o'tkazdik derdi , - raxmatli otam. Bizning oilaga “ quloq ” tamg'asi bosilgan edi . Biz biror davlat ishiga kirmoqchi bo'lsak , bu kishi “ quloq ” ning avlodi deb ko'rsatar , aytar edi . Bu ishlarni to'htatish uchun bobomni nohaq ayblashganini isbotlash , uni oqlash uchun ammam juda ko'p harakat qildi . 1963 – yili ammam otamni oqlash uchun Toshkentga borib , bir qancha harakatlardan so'ng oqlab keladi ” ¹ aytib o'tdi suhbatdoshimiz .

Ishodxo'jayev G'ozixon Eshonning keyingi taqdiri haqida uning o'g'li G'oziyev Yo'ldoshxon ota shunday dedi : “ Biz oilamiz bilan otamni hech qachon o'lgan deb o'ylagan emasmiz . To'g'ri ancha yilgacha otamdan tirik yo o'lganligi haqida habar bo'lmagan . Lekin tahminan 12 – 13 – yildan keyin uyimizga xat keladi , unda otam men tirikman uyga qaytyapman deb yozilgan edi . Oradan ozgina vaqt o'tgandan so'ng yana xat kelib , unda “ Otangiz Ukrainadan qaytayotib kasallikka chalinganligi va Barnaul shahriga yetib kelganda vafot etdi ” deb yozilgan edi . Biz surishtiruv ishlarini olib borib xaqiqatdan ham otam o'sha joyda vafot etganligini bildik va jasadini o'z vatanimizga olib keldik ” ² dedi .

Biz o'z izlanishlarimiz orqali Ishodxo'jayev G'ozixon Eshonni taqdiri bo'yicha oz bo'lsada ochib berishga intildik . Bu esa o'z vaqtida tarix zarvaraqlarida yomonotliq bo'lib iz qoldirgan insonni qanday ishlarni amalga oshirganligi mana endi mustaqillik sharofati bilan isbotini topdi .

Nuriddinov Eshon Najmiddin – 1886 – yili Baliqchi tumani A'lam qishlog'ida tug'ilgan. U eshon , sobiq quloq , 1933 – yil Namanganga surgun qilingan . Surgun 5 – yil deb belgilangan . Surgundan oldin u imomlik qilgan

1. Ushbu esdalik X. Xudayberdiyev tomonidan 2011 – yil 30 – mart kuni hozirgi Oltinko'l tumani A'lam qishlog'da G'oziyev Jo'raxon aka xonadonida yozib olindi .

2 . Ushbu esdalik X. Xudayberdiyev tomonidan 2011 – yil 30 – mart kuni hozirgi Oltinko'l tumani A'lam qishlog'da Yo'ldoshxon ota xonadonida yozib olindi .

paytda bosmachilik qilganlida ham ayblangan . Yana u “ Milliy Ittixod ” guruxi bilan ham aloqada bo’lgan .

U sovet davlatiga qarshi agitasiya yuritganligi va kolxozlashtirishga qarshi chiqqanligi uchun qamoqqa olingan . 10 yil muddatga MTLga hukm etilgan . Amal qilish muddati boshlangan kun 1937 – yil 13 – noyabrda boshlangan . Nuriddinov Eshon Najmiddinni izlab uchun Baliqchi tumani A’lam qishlog’iga borganimizda u surgundan 1952 – yil kelganligi va kelib Namangan viloyati Norin tumanidagi hozirgi Kemaboshi qishlog’ga ko’chib ketganligini aniqladik . Nuriddinov Eshon Najmiddinning bu yerda avlodlarni izlab uning Tojiddin ismli nevarasi hayot ekanligini bildik.

“ Mening bobom, – deb suhbatni boshladi , Tojiddin ota - kuchli siyosiy guruhlarining ishtirokchisi , kuchli siyosatchi , “ Milliy Ittihod ” a’zolaridanbiri bo’lgan .Otamning aytishicha bobom bosmachilarga yordam berganlikda va antisovet guruhlar azosi deb 1933 – yilda Baliqchi tumani A’lam qishlog’idan Namangan viloyatidagi Xaqqulobod bo’limiga surgun qilinadi . Lekin bobom u yerdan tez orada uyga qochib keladi . SHunday bo’lsada baribir 1937 – yil kech kuzida 10 yil muddatga Ukrainaga surgun qilinadi . Otam o’sha paytda 27 yoshda , men 2 yashar ekanman . Ukrainada ko’p yurtdoshlarimiz singari bobom ham ocharchilik va qiyinchilikda kun kechirgan . Urush yillarida mehnat frontida yordam bergan . O’sha joydagi surgundagilarning yozma xatlaridan so’ng 1952 – yil 15 yillik surgundan keyin qaytib keladi . Oradan bir yil o’tmasdan bobom vafot etdi . Biz oilamiz bilan o’sha kunlarni hali ham eslab , hotirlab , ruhlariga duoi

1. Ushbu esdalik X. Xudayberdiyev tomonidan 2011 – yil 18 – aprel kuni Namangan viloyati Norin tumani Kemaboshi qishlog’ida Tojiddin ota xonadonida yozib olindi .

2. Ushbu esdalik X. Xudayberdiyev tomonidan 2011 – yil 30 – mart kuni hozirgi Oltinko’l tumani A’lam qishlog’da Yo’ldoshxon ota xonadonida yozib olindi .

fotihalar o'qib kelmoqdamiz . Esimda bobomni surgundan qaytyapmiz degan habarni olib kelgan xat orqasidan uyda ham shodlik ham qayg'u aralash hursandchilik boshlangan edi . U kunlarni hali – hamon unutganim yo'q . Mana endi hozirgi kunga kelib mustaqil bo'lganimizdan so'ng , o'sha paytda ozodlik uchun kurashgan , tuhmat bilan beayb qolmagan , surgun qilingan , otilgan vatandoshlarimiz taqdiri o'rganilayotgandan juda ham xursandman ” ¹ deb suhbatini tamomladi Tojiddin ota .

Nuriddinov Eshon Najmiddin to'g'risida Ishodxo'jayev G'ozixon Eshonning o'g'li G'oziyev Yo'ldoshxon u haqida eslab : “ Najmiddin ota kuchli siyosiy fikrga ega inson edi . U mening otam bilan bir kunda o'sha paytdagi “ uchlik ” tomonidan qatag'on qilinib , surgunga uchragan ekan . Qishlog'imiz katta yoshdagi kishilari u haqida ko'plab gapirar va bu suhbatlarni biz ham birga eshitardik . Urush tugagach Najmiddin ota uyga qaytib keldi . U oila a'zolarini olib Namanganga ko'chib ketdi . Eshitishimcha oradan bir yil o'tib u o'sha joyda vafot etgan . Oradan ancha vaqt o'tsa ham u kunlar xotirasi . o'sha kundagi voqealar o'chmas iz qoldirdi ” ² deb gapini tamomladi Yo'ldoshxon ota .

Nuriddinov Eshon Najmiddin to'g'risida yana o'z jiyani Xosilov Ahbar ota so'z yuritib u haqida : “ Tog'amni men yaxshi eslay olmayman , chunki mening dadam tog'amdan keyinoq vafot etdi . Men esa Tojiddin otadan ikki yosh kichkinaman . Biz hozir o'sha davrlardagi voqealar to'g'risida gaplashib sizlar bilan bir maza qilib oldim . Buning uchun katta rahmat . Ayniqsa ustozlaring ga mening nomimdan tashakkur aytaman . Bunday ishlar uchun u odamlarga tarixni tiklayotgan insonlarga imkon qadar yordam berganimizdan hursandman ” ² deb o'z

1. Ushbu esdalik X. Xudayberdiyev tomonidan 2011 – yil 18 – aprel kuni Namangan viloyati Norin tumani Kemaboshi qishlog'ida Tojiddin ota xonadonida yozib olindi .

2. Suhbat shu joyda bo'ldi . 2011 – yil 18 – aprel.

suhbatini tugatdi .

Mirazimov Mulla Akbar – Baliqchi tumani Sirmaq qishlog’ida 1913 – yil tug’ilgan . Sobiq quloq , qamoqqa olingan paytda xech qanday ish bilan mashg’ul bo’lmagan .

Unga kolxozlashtirish davrida kolxoz tuzishga qarshi agitasiya yuritganligi va aval kolxozga kirib keyin undan chiqib ketgan degan ayblar bilan qatag’onga uchragan . Jazo muddati 10 – yil deb belgilangan . Muddat boshlangan kun 1937 – yil 13 – noyabrdan boshlab amalga oshirilgan va u Ukrainaga surgun qilingan .

Biz ushbu insonni keyingi taqdiri haqida Bitiruv malakaviy ishi bo’yicha , shu qishloqqa kelganimizda , bu yerdagi hozirda katta yoshdagi oqsoqollar bilan ko’rishib , ular bilan suhbatlashdik . Suhbat chog’ida Mirazimov Mulla Akbar haqida qishloq oqsoqollaridan biri Ismonov Jakbarali u haqida : “ Bu inson to’g’risida mening otam bir paytlar bizga gapirib bewrgandi . Otamning aytishicha, 1937 – yilda Mirazimov Mulla Akbarni ushlab , taxminimcha Ukrainaga olib ketishgan . U o’rta boshlang’ich ma’lumot olgan . Otamning aytishicha u bizga xollavacha bo’lgan . Yosh surgun bo’lgani uchun bu paytda oila qurmagan edi . Eshitishimcha ikkinchi jahon urushi boshlangandan keyin urushga olinadi . Urushda ko’plab janglarda ishtirok etib , jasoratlar ko’rsatib , 1943 – yildagi janglarning birida halok bo’ladi . SHundan keyin uning avlodlari shu bilan tugadi . Hozirda uning avlodlari qolmagan ”¹ deb o’z suhbatini tamomladi .

Mirazimov Mulla Akbar haqida ma’lumotlar ozligi , uning esa oilasi yo’qligi tufayli qishloq oqsoqollaridan boshqa ma’lumot topolmadik .

SHunday qilib Bitiruv malakaviy ishi bo’yicha Mirazimov Mulla Akbar , Nuriddinov Eshon Hajmiddin , Avulov Mulla Qurbon va Ishodxo’jayev G’ozixon Eshonlarning hayot yo’li va ularning taqdiri haqida bor haqiqat yuzaga qalqib

1. Ushbu esdalik X. Xudayberdiyev tomonidan 2011 – yil 20 – aprel kuni Baliqchi tumani Eski Haqqulobod qishlog’ida yozib olindi .

chiqdi . Biz esa bunday ismlar , nomlar to'g'risida bugun ham va bundan keyin ham ma'lumotlar to'plash davom etadi . Bu esa bundan keyin shu soha bo'yicha olib boriladigan ishlarga qo'l keladi degan umiddamiz .

3. Qatag'on qurbonlari (Ishodxo'jayev G'ozixon Eshon, Mirazimov Mulla Akbar, Nuriddin Eshon Najmiddin, Avulov Mulla Qurbon) ning hozirgi avlodlari.

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha qatag'on qurboni bo'lgan Ishodxo'jayev G'ozixon Eshonning xozirgi avlodlari shajarasi .

Farzandlari:G'oziyev Muhammadxon , G'oziyeva Mavludaxon, G'oziyev Yo'ldoshxon.

G'oziyev Muxammadxon farzandlari: G'oziyev Sultonxon, G'oziyev Jo'raxon, G'oziyev Akmalxon, Sotimova Gulbahor, G'oziyev Kamolxon, Mo'lanova maloxat, Jo'rayeva Itifotxon.

G'oziyeva Mavludaxon farzandi: Dehqonov Bahodir.

G'oziyev Yo'doshxon farzandlari: Eshonxo'jayev Matlabxon, G'oziyeva Tavvakalxon, G'oziyeva Holidaxon, Eshonxo'jayeva Muruvvatxon.

Ishodxo'jayev G'ozixon eshonning farzandi G'oziyev Muhammadxon ham ota kasbini tanlagan. U maxallada katta usta Bo'lib ishlagan. Asosan duradgorlik va velosiped, traktorlarni tuzatish bilan shug'ullangan.

G'oziyev muxammadxon 1927-yil Baliqchi tumani A'lam qishlog'ida tug'ilgan. 2006-yil 79 yishida vafot etgan. Biz BMI bo'yicha izlanishlar olib borib, ushbu xonadonga kelganimizda haqiqatdan ham G'oziyev Muxammadxon katta usta bo'lganligini bildik. Uning axli ayoli G'oziyeva Maxsudaxon hozir bir kam 80 yoshga to'libdi. Ushbu ayol biz bilan suhbatlashgan chog'da o'z xotiralarini shunday boshladi: "Men bu xonadonga 1951-yil kelin bo'lib tushganman, turmush o'rtog'im qishloqning eng katta duradgor ustalardan biri, o'z qishlog'I va butun yaqin atrofdagi qishloqlarni qo'qon arava, omoch, omoch bo'yinturug'i va boshqa dehqonchilik asboblari bilan ta'minlab turgan. Bizning farzandlar ham ota izidan borib qishloqning eng nufuzli dehqonlaridan bo'ldi "1 deb aytib o'tdi. G'oziyev Muxammadxon 2006- yil o'z qishlog'ida vafot etdi.

G'oziyev Muhammadxonning farzandlari o'n nafar bo'lib, uch nafari 40 kunlik bo'lmasdan bu olamdan o'tib ketadi. Eng katta farzandi G'oziyev Sultonxon 1 shulardan tort nafar farzandi o'g'il, uch nafari qiz bola edi. 1956-yil A'lamda tavallud topgan. U hozir katta oila boshlig'i. Besh o'g'il va bir qiz farzandlari yetti nevara otasi hisoblanadi. Uning ukasi 1960-yilda tug'ilgan G'oziyev Jo'raxondir. Uning uch nafar farzandi bor. Hozirgi paytda Oltinko'l tumani O'zbekiston jamoa xo'jaligida joylashgan A'lam MFY ga qarashli To'rakeldiyev Jamoliddinning fermer xo'jaligida ukasi G'oziyev Akmalxon (1963-yil tug'ilgan) bilan birga hisobchi va biri traktorchi bo'lib ishlab kelmoqda.

Oilaning eng kenja o'g'li G'oziyev Kamolxon (1963-yil tug'ilgan) hozirgi kunda bir o'g'il va ikki qizning otasi. 1990-1995-yillar orasida Farg'ona Davlat universitetini Elektrotexnika yo'nalishining sirtqi bo'limini tamomlagan. Hozirgi paytga kelib Andijon viloyati elektr tarmog'i Baliqchi tumani Chinobod bo'limida injener bo'lib ishlab kelmoqda.

G'oziyev Muxammadxonning uch nafar qizlari Sotimova Gulbahor (1967-yil tug'ilgan) hozir ikki nafar farzandning onasi, Mo'lanova Maloxat (1972-yil tug'ilgan) uch nafar farzand va Jo'rayeva Itifotxon (1975-yil tug'ilgan) ikki nafar farzandning onalaridir. Ishodxo'jayev G'ozixon eshonning to'ng'ich farzandi avlodlari hozirgi kunda O'zbekistonni yuksaltirish va farovonligini oshirish yo'lida xizmatlarini ayamay mehnat qilib kelmoqda.

Qatag'on qurboni Ishodxo'jayev G'ozixon eshonning yakka-yu yagona qizi G'oziyeva Mavludaxonidir. Bu ayol 1930-yil A'lam qishlog'ida tug'ilgan. Hozirgi kunga kelib bu ayol oramizda yo'q bo'lsa ham u qilgan ishlar mehnatlari xalq yodida muxrlanib qolgan. G'oziyeva Mavludaxon 1950-yili Farg'ona Pedagogika institutiga o'qishga kirib, 1955-yili tamomlaydi. O'qishni tugatgach maktabda o'qituvchilik qiladi. Oila a'zolari va ukasi G'oziyev Yo'ldoshxonlarning esga olishicha G'oziyeva Mavludaxon otasining nohaq surgun qilingani va uni oqlash uchun 1964-yil Toshkentga boradi. Shundan so'ng u reablatsiya qilinadi. G'oziyeva

Mavludaxon 1966-1972-yillar orasida A'lam qishlog'idagi 26-o'rta maktabning direktori lavozimida ishlaydi. Nafaqaga chiqqandan so'ng ham u mehnat qilishdan charchamadi. Shu mehnatlari evaziga mustaqillikning ilk yillaridayoq "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. G'oziyeva Mavludaxon 2003-yil bu dunyoni tark etdi. Undan bitta-yu bitta farzand Dehqonov Bahodir (1952-yil tug'ilgan) qolgan. Dehqonov Bahodir hozirgi kunda katta oila boshlig'i. Uning uch o'g'il, ikki qizi va o'n bir nevarasi bor. Farg'ona institutida o'qigan. 26-maktabda tarix fanidan ustozlik qilgan. Hozirgi kunda "mehnat faxriysi" sifatida maxilla ishlariga, uning obod bo'lishiga o'z xizmatlarini qo'shib kelmoqda. Uning o'g'illari ham institutlarni tamomlab, o'z ishlarini siddiqdildan bajarishmoqda.

Ishodxo'jayev G'ozixon eshonning hozirda tirik bo'lgan eng kichik o'g'li G'oziyev Yo'ldoshxon 1937 yilda tug'ilgan. U otasini ko'rmagan bo'lsada u haqida juda ko'plab ma'lumotlarni onasi tomonidan eshitgan. Uning hozir to'rt nafar farzandning otasi hisoblanadi. O'g'li hisoblanmish Eshonxo'jayev Matlabxon(1978-yil tug'ilgan), qizlari G'oziyeva Tavvakalxon (1971-yil tug'ulgan) G'oziyeva Holidaxon (1974-yil tug'ilgan) Eshonxo'jayeva Muruvvatxon (1984-yil tug'ilgan) G'oziyev Yo'ldoshxon o'z vaqtida tarix fani bo'yicha texnikumni tugatgan. U o'z qishlog'idan maktabda oddiy o'qituvchilikdan direktorlik lavozimiga qadar ko'tarilgan. Hozirda otasining ishini qizi G'oziyeva Holidaxon davom ettirmoqda. G'oziyev Yo'ldoshxon O'qituvchilik davrida o'z otasining, ajdodlarining shajarasi bilan ham shug'ullangan. Shu shajara orqali biz uning hozirgi avlodlari haqida bilib oldik. G'oziyev Yo'ldoshxonning qarindoshlaridan biri T. Bahrom aka hozirda Andijon shaxrida "Andijonnoma" gazetasida jurnalist bo'lib ishlar ekan. Biz ushbu kishini izlab topib oilasi haqida bir paytlar yozgan o'z maqolasi bilan tanishdik. Bu maqolada shunday ma'lumotlar bor edi. "Bizning oila, – deb boshlangan edi maqola, – hozirda A'lam qishlog'ida istiqomat qiladi. Bu joyni bunday atalishiga ko'plab gap – so'zlar mavjud. Mening bobom Ishodxo'jayev G'ozixon Eshon shu qishloqning o'ziga to'q insonlardan biri edi.

Bobomni aqli , o'z ishiga usta ekanligi tufayli , sovetlar tomonidan amalga oshirilgan “ Katta terror ”zamonida 1937 – yilda uydan olib chiqib ketilib Andijon turmasiga tashlanadi . U yerda bobom Toshkentdagi “ uchlik ” tomonidan Ukrainaga surgun qilinadi . Bobom usta bo'lganligi sababli u joyda kema tuzatish ishlariga jalb etilgan . Ma'lumotlarga qaraganda sovetlarga yordam berganligi va O'zbekistondaligida beayb qamoqqa olingan degan shubha bilan ammamning say – harakatlari tufayli bobomni oqlashga erishgan . Uning tobutini esa O'zbekistonga olib kelganlar ” .

Nuriddin Eshon Najmiddinning ikki o'g'li va bir qizi bo'lgan . Lekin ulardan faqat bir o'g'lining farzanlari bor xolos . Qolgan farzandlarining oilasi bo'lmagan. Uning farzandi Nuriddinov Sayfiddin (1913 – yil tug'ilgan) bo'lib , xozirgi kunda hayot bo'lgan o'g'li Tojiddin(1936 – yil tug'ilgan) otadir . Bu insonning o'g'li Sirojiddin (1961 – yil tug'ilgan) va qizi SHoxidaxon(1963 – yil tug'ilgan). Sirojiddin akaning farzandlari Barnoxon (1982 – yil tug'ilgan), SHahloxon(1985 – yil tug'ilgan) , Dostonbek (1990 – yil tug'ilgan) , Xursanoy (1992 – yil tug'ilgan) lar.

Qizi SHohidaxonning farzandlari : Botirbek (1981 – yil tug'ilgan) va Farhodbek (1987 – yil tug'ilgan) .

Hozirda Sirojiddin aka usta bo'lib , xizmat qilib kelmoqda .

XULOSA

Xulosa o'rnida shunday fikrlarni bildirish mumkinki , hozirgi vaqtda to'g'ri yo'lni tanlab olishimizda eng avvalo tariximizni ham bilish talab etimoqda . CHunki , tarix insonning ko'zini ochadi , ko'p xatolarning oldini olish imkonini beradi .

Ayniqsa chor Rossiyasi va sovetlar mustamlakachiligi davridagi milliy tariximiz soxtalashtirib yuborilganki uni o'z joyiga qo'yish , tuzatish juda ham og'ir kechmoqda . O'z yechimini topaolmayotgan muhim muammolardan biri O'zbekistonning 20 – 30 yillardagi tarixi , jumladan , sovetlar xokimyatining olib borgan kollektivlashtirish , quloqlashtirish , surgun siyosati masalasidir .

O'sha mustabid sovetlar tuzumi davridagi muammolarni hal etishda president Islom Karimovning 1999 – yil 12 – maydagi farmoyishiga muofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 – yil 22 – iyuldagi “ Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon b'lgan fidoiylar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida ” gi qarori katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi .

Kollektivlashtirish va quloqlashtirishning fojeali usullaridan biri minglab yurtdoshlarimizni qatag'on vositasi orqali Ukraina , SHimoliy Kavkaz , Qozog'iston , O'zbekistonning o'zidagi dasht-u – cho'l , o'zlashtirilmagan joylarga surgun qilib , majburiy suratda ishlatish edi . Ularning katta qismi yo'l azobi , kasallik , ocharchilik , qaxatchilikdan o'lib ketdi , bir qismi qatag'on qilinib otib tashlandi , shu joylardan 8 – 10 yil qamoq jazosiga hukm etilib , yana surgun joyidan boshqa iqlim sharoiti nhoyatda og'ir bo'lgan Sibir, Uzoq Sharq , Kareliya , Magadanga qamoq jazosini o'tishga badarg'a etildilarki , u joylardan kamdan – kam “ mahbus ” omon qolib , vataniga qaytgan . Aksariyat ko'pchilik o'sha lagerlarda o'lib ketgan . Kollektivlashtirish boshlanishidan to 1937 – yilga qadar GULAG tizimidagi lagerlar aholining ko'pchiligini ayni “ quloqlar ” tashkil qilgan .

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov bunday voqealarni nazarda tutib , shunday deb yozadi . “ – El-yurtimiz taqdiriga daxldor bo'lgan tarixiy adolatni tiklash , xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishimizdagi yopiq sahifalarni to'la ochib berish , shu tarixdan saboq chiqarib , bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish , begunoh qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz , ham farz edi .

Ana shu insoniy burchimizni ado etish maqsadida 2000 – yili poytaxtimizning Yunusobod tumanida qatag'on yillarida xalqimizning minglab asl farzandlari qatl etilib nom – nishonsiz ko'mib tashlangan . Biz esa Bo'zsuv kanali sohilidagi Alvastiko'prik deb nom olgan jarlik o'rnida SHahidlar xotirasi xiyoboni va keyinchalik shu nomad muzey va jamg'arma tashkil qilindi . 2001 – yildan e'tiboran 31 – avgust yurtimizda Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi ” ¹ .

Tariximizning ana shu saxifalarini sovet davrida O'rta Osiyo tarixshunosligida mutloqo'rganilmadi . Bunga imkoniyat yaratilmadi ham , yaratilishi ham mumkun emasdi . CHunki , bu tarixni yaratish Komfirqa va sovet rejimini fosh etish bilan barobar edi . SHu bois “ yopiq qozon yopiqligicha qolaversin ” qabilida ish tutilib , chin tarix xalqdan yashirib kelindi . Hattoki , kuch ishlatish saloxiyatiga ega bolgan Prokuratura , Ichki Ishlar , GPU , Davlat havfsizlik organlari ana shu achchiq , alamli tarixini aks ettirgan manbalarni yo'q qilish kabi vandalistic xarakatlar qilganing shoxidi bo'lganmiz . Oqibatda mahsus poyo'lkalardagi komendaturalardagi faoliyatni aks ettiruvchi hujjatlar , mahsus ko'chkindilarning shaxsiy ishlari ongli ravishda yo'q qilindi .

Bunday holat esa Ukraina , SHimoliy Kavkaz , Qozog'iston , Sibirga surgun qilingan O'rta Osiyoliklarning mahsus poyo'lkalardagi keng qamrovli

1. Karimov I.A. – “ Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch “ T.: “O'zbekiston” , 2008 , 98 – 101 betlar.

hayoti , turmushi , mehnat faoliyatini keng va atroflicha yoritilishiga imkon berilmayapti .Lekin ayrim joylardagi o'rta osiyolik ko'chkindilarning esdalik , xotiralari yozib qoldirganlari ham bo'lgan . Ammo bu juda ham oz va kam , hozirda ana shu mahsus ko'chkindilar deyarli qolmagan , faqat ularning zuriytlari , yaqinlari qolgan , ular ham juda oz miqdorda . Biz esa bunday kamchiliklarni o'rnini qoplashga harakat qildik . Muammo va yechishga imkon bermayotgan mavzular yuzasidan ilmiy izlanishlar natijasida 1937 – 1938 yillardagi “ Katta terror ” qurboni bo'lgan to'rt nafar baliqchilik insonlarning taqdiri to'g'risida o'rgandik va izlanishlar natijasini bayon etdik .

Umuman , O'zbekistonda amalgam oshirilgan yoppasiga kollektivlashtirish , “ quloq ” qilish siyosati va amaliyoti zo'ravonlikka , qatag'onchilikka asoslangan mudxish tadbir bo'lib , u qishloq aholisiga cheksiz kulfat , g'am – a'lam va qayg'u keltirdi . Surgun qilish esa nisbatan uzoq davom etdi . Budavr mobaynida qishloqning eng tadbirkor , mehnatsevar , ishbilarmon qatlami batamom yo'q kelib qolib yuborilgan . Bu xo'jaliklarning ixtiyoridagi butun mol – mulki musodara qilinib yuborildi . Ularning keyingi taqdiriga ochlik , xo'rlik , g'urbat qismati yozildi. Bunday fojealarga yo'liqqan o'zbekistonliklar , jumladan andijonliklar nomma – nom aniqlanmoqda ¹ . Chunki tarixda haqiqat o'rnatilmog'i lozim . Shundagina hayotda ham haqiqat , adolat qaror topadi . Bu borada yurtimizda ibratli , taxsinga sazavor ishlar qilinmoqda . Bunda Prezidentimiz Islom Karimovning xizmatlari , ilxombaxsh g'oyalari benihoya kattadir .

2004 – yil 31 – avgustda yurtboshimizning siyosiy qatag'on qurbonlarini xotirlash kunida qatag'on qurbonlari bo'lgan bobolarimizga extirom sifatida “ SHahidlar xotirasi ” yodgorlik majmuasida ularningjasoratini ifodalash maqsadida

1.SHamsutdinov R.T. “ Katta terror aybdorlari xaqida yangicha talqinlar ” , “Univestitet” , Andijon , 2007.

yodgorlik o'rnatdik , uning poyiga istibdod qurboniga aylangan vatandoshlarimizning , jumladan Sibir va boshqa hududlarga surgun qilinganlarning ismi – sharifini yozsak , o'ylaymanki , o'tganlarning ruxini yznada shod etgan bo'lamiz , degan edilar . Prezidentimizning bu taklifi xalqimizning aynidilidagi muddaosi bo'ldi .

30 – yillarda Andijonda minglab odamlar otilgan , qatlgoh qilingan , ular ko'milgan joylar aniqlangan emas . Bizning ustozlarimiz siyosiy qatag'on qurbonlari bo'lgan minglab andijonliklarni nomma – nom aniqlab , ular haqidagi ma'lumotlarni topdik va jamlamoqdamiz .

SHunday qilib , aybsiz aybdorlar , jinoyatsiz jinoyatchi bo'lgan , uzoq muddat bilan begona yurtlarda surgun azobi chekkan , kanslagerlarda maxbuslik daxshatlarini boshdan kechirgan Mirazimov Mulla Akbar , Nuriddinov Eshon Hajmiddin , Avulov Mulla Qurbon va Ishodxo'jayev G'ozixon Eshonlarning hayot yo'li va ularning taqdiri haqida ayrim haqiqatlarni ro'yobga chiqarishga harakat qildik . Bunday ishlarni bajarishda oz bo'lsa ham foydamiz tekkanidan benihoya ko'nglimiz to'ldi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “ Qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish to'g'risida ” , - Toshkent , 1999 – yil 12 – may.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “ Qatag'on qurbonlari yod etish kunini belgilash to'g'risida ” , - Toshkent , 2001 – yil 1 – may .
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori “ Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoiylar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida ” , - Toshkent , 1999 – yil 22 – iyul .
4. Karimov I. A. “ O'zbekiston : milliy istiqlol , iqtisod , siyosat , mafkura ” , 1 – jild, T. : “ O'zbekiston ” , 1996.
5. Karimov I. A. “ Bizdan ozod va obod Vatan qolsin ” , 2 – jild , - T. : “ O'zbekiston ” , 1996.
6. Karimov I. A. “ Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q ” T. : “ SHarq ” , 1998 – yil.
7. Karimov I. A. “ Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch ” , T. : “ O'zbekiston ” , 2008.
8. Karimov I. A. “Xalq xotirasi oldida bosh egamiz” _ “Sharq” T.: 2001-yil .
9. SHamsutdinov R.T., Karimov SH. “ Vatan tarixi “ Ikkinchi kitob ” , Andijon, “ Meros ”, 1998,
10. SHamsutdinov R. T. “ O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari ” . T.: “ SHarq ”, 2001.
11. SHamsutdinov R. T. “ Istiqlol yo'lida shaxid ketganlar ” , T.: “ SHarq ”, 2001.
12. SHamsutdinov R. T. “ Qishloq fojeasi : Jamolashtirish , Quloqlashtirish , Surgun. (O'rta Osiyo Respublikalari misolida) ” , T.: “SHarq” , 2003,
13. SHamsutdinov R. T. , Mamajonov A. “ SHimoliy kavkaz surgunidagi yurtdoshlar qismati “ T.: “SHarq” , 2005.

14. “Репрессия 1937-1938 г-г . Документы и материалы ” Выпуск 1. Сост: Шамсутдинов Р.Т ., Каримов Н.Ф., Юсупов Э. Ю. отв. ред. Каримов Н.Ф. “ Sharq ” , Toshkent , 2005.

15. Шамсутдинов Р.Т ., Расулов Б. “ Трагедия среднеазиатского кишлака : коллективизация , раскулачивание , ссылка . 1929 – 1955 г. г. Документы и материалы ” . Том I-III “ Шарк ” , 2006 .

16. SHamsutdinov R.T. “ Katta terror aybdorlari haqida yangicha talqinlar ” , “Univestitet” , Andijon , 2007.

17. SHamsutdinov R. T. va hammualliflikda “ Qatog'on qurbonlari” (1937 yil 10-avgust 5-noyabr). Ikkinchi kitob . – T “Sharq” 2007.

18. “ Vatanimiz o'tmishidan ” , Andijon , 2007.

19. Репрессия “ (1937-1938 г-г) Документы и материалы. Выпуск 3. “Жертвы Большого террора из Узбекистана 1937 –год , ноябрь ” Сост: Шамсутдинов Р.Т ., Юсупов Э. Ю., Мамажонов А. , Дусматов Э. Тошкент “ Шарк ” , 2007

20. “Репрессия” 1937-1938 г-г Документы и материалы. Выпуск 4 . “Жертвы Большого террора из Узбекистана” 1937-год, Декабрь” Сост: Шамсутдинов Р.Т ., Дусматов Э. , Абдуллаев М., Курбанов Х. Р. Тошкент “ Шарк ” 2008.

21. “ Qatog'on qurbonlari” 1938 – yil fevral , sentyabr. Beshinchi kitob . Tuzuvchilar: SHamsutdinov R. T. , Qurbonov X. R., Rasulov J., Egamberdiyev F., Bekimmetov U. Toshkent. “ SHarq ” , 2009 .

22.SHamsutdinov R. T. , Akbarova M. – “ SHimoliy Qozog'iston surgunidagi yurtdoshlar qismati “ T.: “SHarq” , 2009,

23. www.uzmeros.uz/books.hph. “ Meros ” xalqaro ilmiy – amaliy ekspedisiya xayriya jamg'armasi fondi kitoblaridan.

24. 2011 – yil 30 – mart kuni hozirgi Oltinko'l tumani A'lam qishlog'da Yo'ldoshxon ota xonadonida yozib olingan esdaliklar.

25. 2011 – yil 18 – aprel kuni Namangan viloyati Norin tumani Kemaboshi qishlog'ida Tojiddin ota xonadonida yozib olingan esdaliklar.

26. Orifjonov Abduqodiraka xonadonida hotira esdalikidan yozib olingan. 2011 – yil 27 – mart.



**Ishodxojayev G'ozixon Eshonning o'g'li
G'oziyev Yo'ldashxon ota**



**Ishodxojayev G'ozixon Eshonning o'g'li G'oziyev
Muhammadxonning axli ayoli G'oziyeva Mahsudaxon**



**Ishodxojayev G'ozixon Eshonning o'g'li G'oziyev
Muhammadxon va uning axli ayoli**



**Ishodxojayev G'ozixon Eshonning o'g'li G'oziyev
Muhammadxon, uning axli ayoli va nevaralari bilan**



Nuridinov Eshon Najmidinng nevarasi
Tojiddin ota va talaba X Xudovberdivev



Mirazim Mulla Akbarning xolavachasi
Ismonov Jakbarali va uning axli ayoli